

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Kasb-Hunar  
Ta'lim Vazirligi  
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

I Ingliz filologiyasi fakulteti

# MALAKAVIY ISH

MAVZU: O'rta maktablarda ingliz tili talaffuzini o'rgatishda  
texnik vositalar va ulardan foydalanish

ILMIY RAHBAR: I.Yoqubov

TAYYORLADI: 402 A guruh

talabasi Shadieva Nafisa

TOSHKENT-2012

# Mundarija

I.Kirish.....	3
II.1Bob. Inglizcha talaffuzni o'rgatish va texnik vositalarni qo'llash.....	6
1.1 Inglizcha talaffuzni o'rgatish xususiyatlari va qiyinchiliklari.....	6
1.2 Inglizcha talaffuzni o'rgatish metodlari.....	24
1.3 Inglizcha talaffuzni o'rgatishda qo'llaniladigan texnik vositalar .....	33
III. 2 Bob. O'rta maktablarda inglizcha talaffuzni o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash.....	39
2.1 O'rta maktablarda inglizcha talaffuzni o'rgatishda mavjud texnik vositalar va ularning turlari.....	39
2.2 Ingliz tilini o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash.....	44
IV. 3 Bob. O'rta maktablarda ingliz tili til materiallari va nutq faoliyati turlarini o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash.....	49
3.1 O'rta maktablarda ingliz tili darslarida 6-sinflarga til materiallari (talaffuz, leksika, grammatika)ni o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash.....	49
3.2 O'rta maktablarda ingliz tili darslarida 6-sinflarga nutq faoliyati turi tinglab tushunishni o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash.....	56
V.	
Yakun.....	62
VI. Foydalanilgan adabiyotlar .....	65

## **Kirish**

Hozirgi paytda texnika va texnologiyalar rivojlangani sari axborot almashinuvi ham tezlashib bormoqda. Tabiiyki, shiddatli axborot oqimi jarayoni yosh avlodni ham chetlab o'tmaydi. Foydalanish uchun turli texnik vositalar hamda multimediya apparatlari ishlab chiqarilmoqda. Bunday qulay axborot tizimi yosh avlodni, o'quvchi va talabalarni kundalik darsdan ko'ra ko'proq o'ziga jalb qiladi. Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: biz o'quvchi va talabalarning e'tiborini tortgan multimediya, kompyuter texnologiyalari va texnik vositalarni dars jarayonida qo'llasak qanday samara berishi mumkin?

Bizga ma'lumki, ingliz tili dunyodagi eng ko'p gaplashiladigan ikkinchi til hisoblanadi. Kun sayin bu tilni o'rganuvchilar soni ortib bormoqda. Deyarli dunyoning har burchagida ingliz tilida gapiradiganlar va bu tilni tushunadiganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ingliz tili shuningdek birinchi raqamli axborot almashinuvi tili hisoblanadi. Shunday ekan bu jadal sur'atlarda odimlayotgan taraqqiyot davrida davlatimiz boshqa davlatlar qatorida bo'lishi uchun yosh avlodga ingliz tilini o'rgatish juda dolzarb ahamiyatga ega. Bu holatni tushungan xalqimizda so'ngi paytlarda ingliz tilini o'rganishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj tug'ilmoqda. Albatta har kim o'ziga qulay, zamonaviy dars jarayoni va shuning bilan birga bu tilni oson va puxta egallashni xoxlaydi. Lekin har doim ham kutilgan natijaga erishish oson bo'lmaydi. Ingliz tilini kommunikativ vosita sifatida qo'llar ekanmiz, suhbatdosh uchun qiyinchilik tug'dirmasligimiz kerak yani undan fikrimizni bildirishda unumli va samarali foydalanishimiz, xatolardan xoli gapirishga harakat qilishimiz kerak.

Turli ilmiy tajribalarga ko'ra, ko'pchilik til o'rganuvchilar talaffuzni o'rganishda qiyinchiliklarga duch keladi, ingliz tilida gapirayotganda o'z nutqini boshqalarga tushuntirish hamda o'z g'alar nutqini tushunishda muommolarga bo'ladi. Bularni bartaraf etish va oldini olish uchun talaffuzni o'rgatishda samarali usull va vositalardan foydalanishimiz kerak. Bunda texnik vositalarning o'rni beqiyosdir. Texnik vositalar deganda fonogramma, video, audio-video dasturlar va

ularni qo'llash imkonini beruvchi televizor, video qurilma, kompyuter, shunigdek proyektor, diktafon va boshqa ko'plab til o'qitish vositalarini tushunish mumkin. Bu vositalardan mustaqil ravishda hamda sinfda foydalanish mumkin.

Malakaviy ishning mavzusi "O'rta maktablarda ingliz tili talaffuzini o'rgatishda texnik vositalar va ulardan foydalanish" deb nomlanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda barcha sohaalarda kadrlarga ingliz tili kerak bo'layotgan ekan, tilni zamon talablari darajasida va texnologiyalardan foydalangan holda o'rgatish ahamiyat kasb etib bormoqda. Ingliz tilini o'rganar ekanmiz uni ravon va turli xatolardan holi, ayniqsa talaffuz nuqsonlarisiz o'zlashtirishimiz lozim. Sababi til bu kommunikativ vosita, undan foydalanishda tipik xatolarga yo'l qo'ysak so'zlovchi va suhbatdosh o'rtasida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Nutq so'zlovchi ham to'g'ri talaffuz qilish malakasiga ega bo'lmasa uning so'z va grammatikani puxta egallagani ahamiyatsizdek tuyuladi va bilim va malakasini barchaga namoyon eta olmaydi. Kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lsada, talab darajasidagi yetuk kadr hisoblanmaydi. Prezidentimiz aytganidek, vatanimiz kelajagi, xalqimiz ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak.<sup>1</sup>

Ushbu malakaviy ishda asosiy ko'riladigan masalalar, ingliz tili talaffuzini o'rgatishda duch kelinadigan qiyinchiliklar, talaffuz o'rgatish metodlari, texnik vositalar, ular yordamida dars o'tish, buning uchun talab etiladigan shart-sharoitlar, o'rta maktabda turli texnik va texnologik vositalardan foydalangan holda o'tkazilgan darslarning natija va xulosalaridir.

Malakaviy ishning asosiy maqsadi talaffuzni o'rganishda va o'rgatishda duch kelinayotgan qiyinchiliklarni analiz qilish, bartaraf etish usullarini haqida malumot berish, ingliz tili darslarini texnik vositalarni qo'llagan holda tashkil

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" 2008.5b

qilishning yo'llarini ochib berish.

Malakaviy ishning vazifalari, inglizcha talaffuz malakasini egallashdagi qiyinchiliklarni batafsil ochib berish, texnik vositalarni til materiallari va nutq faoliyatida qo'llashning afzalliklarini ko'rsatish, o'rta maktabda o'tkazilgan darslarning qanchalik samarali bo'lganini ochib berish.

Malakaviy ishning asosiy ilgari surgan gipotezasi, agar ingliz tili darslarida talaffuzni o'rgatishda o'rta maktablarda texnik vositalarni qo'llagan holda o'tkzaksak o'quvchilar darsda tezroq va osonroq yaxshi natijaga erishadi, ularning tilga bo'lgan qiziqishi oshib, uni yanada chuqurroq o'rganishga harakat qilishadi.

Malakaviy ishning mavzusini yoritish uchun foydalanilgan usullarni ikki bosqichga – nazariy va amaliy bosqichga bo'lish mumkin:

-Avvalo inglizcha talaffuzni o'rgatishda qo'llaniladigan vositalarni yanada to'ldiradigan, takomillashtiradigan so'ngi ma'lumotlarni topish, ularni bayon qilish, bu nazariy bosqich;

-So'ngra ularni qanchalik darajada til materiallarini o'rgatishda samarali ekanligini amalda isbotlash uchun ularni o'rta maktabda ingliz tilini o'rgatishda qo'llash, bu amaliy bosqich edi.

Malakaviy ishning mavzusini yoritishda ochilgan asosiy yangilik so'ngi paytlarda davlatimizga zamonaviy til o'qitish texnik vositalarining kirib kelishi va darslarda ulardan foydalanishning jadallashgani va aynan shuning uchun ingliz tili o'rgatishning samaradorligi oshayotgani va ingliz tili talaffuzini o'rgatishdagi qiyinchiliklar aynan texnik vositalardan foydalanish tufayli bartaraf etilayotgani va o'z yechimini topayotganidir.

Malakaviy ishning nazariy ahamiyati shundan iboratki, ushbu malakaviy ishda ingliz tili talaffuzini o'rgatish metodlari, texnik vositalarning turlari haqida va ularni qo'llash qonun qoidalari haqida ma'lumot olish mumkin.

Malakaviy ishning amaliy ahamiyati esa texnik vositalarni qo'llash orqali ingliz tili darslari qiziqarli, samarali o'tishini amalda isbotlashdir.

Ushbu malakaviy ish Reja, Kirish, 3 ta bob, xulosalar, Yakun va Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

## **II. 1 Bob. Inglizcha talaffuzni o'rgatish va texnik vositalarni qo'llash**

### **1.1 Inglizcha talaffuzni o'rgatishning xususiyatlari va qiyinchiliklari**

Zamonaviy metodikaning asosiy maqsadi o'quvchilarni tilning tovushlar tuzilishi haqida bilim berish emas, balki tovush va tovush birikmalarini to'g'ri ohang bilan talaffuz qilishga o'rgatishni taqozo qiladi ya'ni o'quvchilarda fonetik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish lozim.

Malumki, kishi talaffuz ko'nikma malakalarini mustahkam egallagan taqdirdagina tildan aloqa vositasi sifatida unumli foydalana oladi. Tilning talaffuz normalarini egallash nutq faoliyatining asosini tashkil qiladi va uning turlari uchun muhim ahamiyatga ega. Agar gapiruvchi fonetik normalarga amal qilmasa, tinlovchi uni yomon tushunadi yoki mutlaqo tushunmaydi.

Agar tinlovchida talaffuz ko'nikma va malakalari shakllanmagan bo'lsa, u nutqni tushunmaydi yoki qiyinchilik bilan tushunadi.

O'qish va yozish jarayonlari uchun ham talaffuz ko'nikma malakalari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham chet tili talaffuziga o'rgatishda nutq faoliyatining psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

“O'rta maktab, litsey va kollej sharoitida fonetika alohida fan sifatida o'qitilmaydi, inglizcha talaffuz o'rgatiladi”<sup>1</sup>

Yuqoridagi satrlarda aytib o'tilganidek ingliz tilida nutq so'zlash uchun tovushlar tizimi, ularni talaffuz qilishni o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega, chunki chet tilida fikr bayon etish aytiladigan jumla tovushlarini talaffuz etish va ularni biriktirish hamda tegishli nutq ohangini bilish talab etiladi. Demak, talaffuzni yaxshi egallash nutq faoliyatini egallashga asos bo'ladi.

Chet tilida nisbatan ravon va yetarli tezlikdagi talaffuzni egallash asosiy talabdir. Bu birinchidan suhbatdoshlar bir-birini anglashlarini taminlasa, ikinchidan nutqning o'rtamiyona sur'atini ko'nikma tarzda egallashni taqozo etadi.

---

<sup>1</sup> O'.Hoshimov. I.Yoqubov. “Ingliz tili o'qitish metodikasi” 74b.

Malumki, ingliz tilida nutq surati bir daqiqada 130-150 ta so'z talaffuz etislihini turli ilmiy tajribalar isbotlagan.

O'quvchi nutqi tushunarli bo'lishi uchun nafaqat ma'no ifodalovchi tovushlar talaffuzini o'rganishi, shuningdek keng istemoldagi sodda va qo'shma gaplarning asosiy ohangi yani urg'usi, melodikasi kabilarni ham o'zlashtirib olishi kerak. Demak, talaffuz ko'mikmasi artikulyatsiya va intonatsiya jarayonlaridan tashkil topadi. Nutq birliklari faqat tovush timsollarida mavjudligini va talaffuzning leksika va grammatika ko'nikmalari bilan birga qo'shilib ketganligini nazrda tutib, nutqda ularni yaxlit egallash odat tusiga kirgan.

Bunda ingliz tili fonetik tizimi hodisalarini bir-birlari bilan va ona tili fonetik tizimi bilan taqqoslangandan kelib chiqadigan xususiyatlarni hisobga olishimiz kerak.<sup>1</sup>

Bu xususiyatlar inglizcha talaffuzni o'rgatishda turlicha tasir qiladi yani ijobiy va salbiy. Ijobiy ta'sir talaffuzni o'rgatishga yordam beradi, shuning bilan birga u o'quvchi, talaba ongli o'zlashtirishining manbai hisoblanadi. Salbiy ta'siri esa chalkashtiradi va interferentsiya keltirib chiqaradi. Bu xususiyatlarni bilib, salbiy ta'sirning oldini olish kerak.

Metodist I.Yoqubov ingliz tili fonetik tizimining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tadi:

- Har bir unli harflarning 4 xil tovush bilan ifodalanishi, yani 6 ta unli 20 ta tovush berishi yoki talaffuz qilinishi;
  - tovushning harfdan ko'pligi: 26 ta harfga 40dan ortiq tovush to'g'ri keladi;
  - diftong, triftonglarning mavjudligi;
  - ingliz tovushlarining tanglayda talaffuz qilinishi;
- 2 ta harfning 1 ta tovush berishi sh [ ];

- 
- cho'ziq-qisqa tovushning mavjudligi;

---

<sup>1</sup> O'.Hoshimov. I.Yoqubov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi". T-2003.76b.

Ingliz tili fonetik tizimini o'zbek tili fonetik tizimi bilan miqdor, sifat, keskinlik jihatdan farq qiladi.

1. Miqdor jihatdan farqi. ingliz tili unilari qisqa, cho'ziq talaffuz qilinadi. o'zbek tilida esa

bunday tovushlar kam uchraydi. Cho'ziq unli tovush ingliz tilida ma'no o'zgartiradi. Masalan: be-bee.

---

2. Sifat jihatdan farqi. Ingliz tilida unli tovushlar monoftong, diftong va triftonglarga bo'linadi, o'zbekchada esa bo'linmaydi. Masalan, monoftong [u], diftong [ai], tiftong [ai].

3. Keskinlik jihatdan farqi. Ingliz tilida tovushlar o'zbek tilidan kuchli farq qilib talaffuz qilinadi. O'zbekcha undosh tovushlarga qaraganda ingliz undoshlari keskinligi, yumshoq talafuz etilmasligi, almashuv hodisasi ro'y bermasligi bilan farq qiladi.

#### Inglizcha talaffuzni o'rgatishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari

O'quvchilarga inglizcha talaffuzni o'rgatishda qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bu qiyinchiliklar ingliz tili o'quvchining ona tilisi o'rtasida fonetik farqlarda ko'rinadi. O'qituvchi ikkala tilning fonetik sistemasini qiyosan bilishi shart.

“Metodika nuqtai nazaridan talaffuzdagi qiyinchiliklar tushunchasi metodistlar, tilshunos olimlar va boshqa chet tili mutaxassisleri tomonidan turlicha talqin qilinadi. 1. Bu talqinlardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning ingliz tili talaffuzidagi tipik xatolarining analizi va bu xatolarni bartaraf etishning bazi metodik usullarini quyidagicha keltirish mumkin:”<sup>1</sup>

O'quvchilar ingliz tili tovushlari va tovush birikmalarining talaffuzida [w, v, , ,r] kabi tovushlarni va yondosh undoshlarni noto'g'ri talaffuz etishlari, tovushlarni almashtirib talaffuz etishlari mumkin. bundan tashqari so'z oxiridagi jarangli undoshni

---

<sup>1</sup> J. Jalolov. B. Zalotov. “Inglizcha talaffuzni o'rgatishda texnika vositalaridan foydalanish” T-1969. 3b



jarangsiz talaffuz etish,ularning cho'ziq qisqaligiga rioya qilmaslik,urg'u va intonatsiyani noto'g'ri qo'yish o'quvchilarning tipik xatolaridan hisoblanadi.

### [w] va [v] tovushlari

Inglizcha [w] tovushini talaffuz etishdan avval o'zbekcha sovun, muruvvat kabi so'zlarni o'quvchilarga aytirib ularning asosiy e'tiborini [w] tovushiga tortishi kerak.Inglizcha [w] tovushi talaffuz etilganda lablar cho'chchayadi va to'garak shaklini oladi. [v] tovushi esa pastki lablarga ustki tish qirrasini tekkizish bilan hosil qilinadi.

O'qituvchi har bir tovushni namunali talaffuz etib ko'rsatgach, o'quvchilar ham bu tovushlarni taqlid yo'li bilan talaffuz etadilar.O'zbekcha [v] bilan inglizcha [w] taqqoslanadi.[w] tovushining har xil o'rinda ke;ishiga misol beriladi:

we	warn	twinkle
welcome	woman	washed
when	where	walls

Yuqoridagi har bir ustun alohida-alohida tartib bilan mashq qiladi.Talaffuzda o'quvchilar o'qituvchi yoki diktorga taqlid qiladilar.Ikkinchi ustundagi [ , ] tovushlari talaffuzida, ['wum n] so'ziga urg'u qo'yishda sodir bo'ladigan qiyinchiliklarga ,uchinchi ustunda esa [tw, t,lz] kabi yondosh undoshlar talaffuzidagi qiyinchiliklarga e'tibor berish lozim.

Inglizcha [w] o'rnida [v] talaffuz etish hollari uchraganda,ularning artikulyatsiyasi holatini ko'rsatish kifoya.O'quvchilar so'zlarning talaffuzini bilib olganlaridan keyin ularga o'sha so'zlar ishtirokida gap tuzish tavsiya etiladi:

O'qiyuvchi:	O'quvchi:
we	We are pupils
well	He is very well now
what	What is your name?

Tarkibida [w] tovushi bo'lgan so'roq so'zlar yordamida maxsus so'roq gaplar tuzish yaxshi natija beradi:

Why are you late?

What does this word mean?

Where is your book?

[w] tovushi talaffuzidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda she'rlar yodlash, maqollar va tez aytishlar o'rgatishning katta ahamiyati bor. Masalan: "Where is thumbkin, where is thumbkin?" qo'shig'i, "where is a will, there is a way" maqoli, "What will you do tomorrow?" turidagi jumlar [w] tovushi o'rniga [v] tovushini talaffuz etishda yuz beradigan xatolarning oldini olishga imkon beradi. Bu ikkala tovushni bir-biri bilan chalkashtirish ma'no o'zgarishiga olib kelishini o'quvchilarga tushuntirib, misollar berish mumkin:

wine - vine

wain - vain

vino - tok (uzum)

kichraymoq - foydasiz

[w], [v] tovushlarini chalkashtirishdan tashqari o'quvchilar [v] undoshi talaffuzida ham xatolarga yo'l qo'yadilar.

O'quvchilar [v] tovushini ingliz tilidagi lab-tish undoshi o'rniga lab-lab undoshi tarzida talaffuz etadilar. Ona tilidagi talaffuz malakasini beixtiyor bu tovush talaffuzida qo'llaydilar. Bunday hollarda o'qituvchidan tovushni ravon talaffuz etish, ona tili va ingliz tilidagi tovushlarning paydo bo'lishidagi farqni o'quvchilarga aniq ko'rsatib berish talab etiladi. Mazkur tovush so'z va jumalarda beriladi. Maslan:

five He is five years old.

live They live in London.

twelve It is twelve o'clock.

[v] tovushining artikulyatsiyasini o'rgatish jarayonida uni quyidagi tovushlar talaffuzi bilan qiyoslash tavsiya etiladi:<sup>1</sup>

[v] - [v]

[v] - [f]

[v] - [w]

So'z oxirida [v] tovushini jarangsiz [f] shaklida shaklida talaffuz etishning lodini

---

<sup>1</sup> J.Jalolov. B.Zalotov. "Inglizcha talaffuzni o'rgatishda texnika vositalaridan foydalanish" T-2003. 5b

olishda yuqoridagi mashqning foydasi katta.

[ ] va [ ] tovushi

Jarangsiz [ ] va jarangli [ ] tish oralig'i undoshlari talaffuzida uchraydigan qiyinchiliklarning asosiy sababi o'zbek tilida mazkur tovushlarning yo'qligidir. Ko'p o'quvchilar [ ], [ ] tovushlarini boshqa tovushlar bilan chalkashtiradilar. So'z va gaplarda [ ] o'rnida [ s,t ], [ ] o'rnida [z,d] singari tovushlarni talaffuz qiladilar. Shu sababli bu tovushlarga mashq berilishdan avval ularning artikulyatsiyasini o'quvchilarga sodda qilib tushuntirish tavsiya etiladi.

[ ], [ ] tovushlarining talaffuzini esda yaxshi qoldirish uchun quyidagi mashqni bajarish mumkin:

a) [ ] - [s]	[ ] - [t]
thing - sing	thousand - tousled (untidy hair)
thin - sin	thanks - tanks
thaw - saw	thought - taught

b) [ ] - [z]	[ ] - [d]
bathe - bays	they - day
seethe - sees	that - dad
clothe - close	

Har bir tovush talaffuzi avval so'zda mustahkamlangach, ushbu tez so'ngra gapda aytishni o'quvchilarga yodlatish foydalidir:

Thirty and three make thirty three;

Through thick and thin we must win;

Ruth thinks nothing of the wealth;

Tongue twisters:

1. I thought a thought. But the thought I thought wasn't the thought I thought.
2. Three thin thieves thought a thousand thoughts. Now if three thin thieves thought a thousand thoughts, how many thoughts did each thief think?
3. The thirty – three thankful thieves thought that they thanked the other thirty

three thankful thieves throughout Thursday.

4. Father, mother, sister, brother – hand in hand with one another.

5. They threw three thick things.

6. Thirty thousand thoughtless boys thought they would make a thundering noise.

So thirty thousand thumbs thumbed on the thirty thousand drums.

7. Is this the thing? – Yes, this is the thing.

[r] tovishi

O'quvchilar [r] tovushining egallashda ancha qiyinchiliklarga duch keldilar. Bunga saba inglizcha [r] tovushining artikulyatsiyasi o'zbekcha r tovushining artikulyatsiyasiga mos kelmasligidir. Inglizcha [r] tovushi titramaydi, o'zbekcha r tovushi esa titroq tovush hisoblanadi.

Inglizcha [r] tovushining talaffuzini o'rgatishda [ ] undoshiga asoslanish tafsiya etiladi:

1. [ ] tovushi cho'zib talaffuz etiladi;

2. Tilni asta-sekin orqaga tortib [ ] tovushi talaffuzidan [r] tovushini talaffuz etishga o'tiladi.<sup>1</sup>

Inglizcha [r] bilan o'zbekcha [r] ning farqini aniq tasavvur etish uchun ingliz va o'zbek so'zlaridan parallel misollar keltirish mumkin. Masalan:

[ red ] - rad                      [ ru:m ] - ruh

[r] tovushining so'z boshida va o'rtasida undosh tovushlar bilan yonma-yon kelishiga misollar:

rainbow                      dress

ready-made                      graduate

read                      free

Shuningdek internatsional so'zlarga misollar beriladi:

radio [ reidi ] - radio

radiative [ redi 'ktiv ] - radiaktiv

transport [ tr nsp (r)t ] - transport

---

<sup>1</sup> J.Jalolov. B.Zalotov. "Inglizcha talaffuzni o'rgatishda texnika vositalaridan foydalanish" T-2003.8b

transit [ tr nzit ] - tranzit

[r] tovushini undoshlar bilan yonma-yon kelganda talaffuz etish o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun bu tovushning talaffuzini mustahkamlash uchun yondosh undoshlar mavjud bo'lgan so'zlardan foydalanib, mashq qilish mumkin.

#### Yondosh undoshlar ( consonant clusters )

O'quvchilarga xos bo'lgan xatolardan biri ingliz tilidagi ikki va undan ortiq undoshning yonma-yon yoki yondosh kelganda o'quvchilarning ularni noto'g'ri talaffuz etishidir. O'zbek tilida yondosh undosh tovushlar so'z boshida deyarli uchramaydi, so'z oxirida esa ayrim undoshlarga yondosh keladi xolos. Bazi hollarni hisobga olmagan holda o'zbek tilidagi yondosh undoshlar ingliz tilidagi yondosh undoshlarga ekvivalent bo'lolmaydi. Ingliz tilida yondosh undoshlar so'z boshida, o'rtasida va oxirida keladi.

Ingliz tilida so'z boshida yoki unlilar oldida (initial or prevocalic position) hammasi bo'lib 39 ta yondosh undosh keladi:

[pr, tr, fr, gr, dr, kr, r, br, r, st, sp, sm, sk, sn, sf, sl, pl, kl, bl, fl, gl, dw, kw, tw, sw, hw, w, fj, kj, mj, bj, pj, vj, hj, str, skr, spr, spl, skw]<sup>1</sup>

Bunda ingliz tilining amerika varianti nazarda tutilgan, maktablarda o'qitiladigan ingliz adabiy tili talaffuz normasi ( received pronunciation) hisobga olinsa, yuqoridagi yondosh undoshlardan [hw] uchramaydi.

O'zbek tilida yondosh undoshlarning quyidagi turlari mavjud:<sup>2</sup>

1. rus tili orqali boshqa tillardan o'zbek tiliga kirgan so'zlar boshida: bl (blok), gl (globus), gr (gram), dr (drama), ps (psixologiya), sp (sport) va boshqalar.
2. o'zbek tiliga fors-tojik, arab tillaridan, rus tili va u orqali kirgan so'zlarning oxirida: bn (ibn), br (sabr), dr (kadr), zd (poezd), zm (bazzm), lm (ilm), ks (aks), kst (tekst), lk (milk), lf (qulf), nch (tinch), sl (fasl), fr (kufir), fs (nafs).

Ingliz tilida ikki bo'g'inli so'zlarda 4 undoshning yonma yon kelish holati ko'p

<sup>1</sup> Charles. C. Fries. "Teaching and learning English as a foreign language" 1956.17b

<sup>2</sup> A. Ishayev. "O'zbek adabiy tili" 1964.70b

uchraydi:

samples [mplz], uncles [ klz], pencils [nslz] .

Shuningdek, bir so'z ichida yoki ikki so'z o'rtasida uchraydigan yondosh undoshlar: [pp,pd,bb,bp,tt,td,dd,dt,tt ,td ,dd ,kk,kg,gg,gk] jumladan lamp - post, what time, sit down, bed time, that child, that joke, book-case kabilar bir cho'ziq undoshdek talaffuz qilinadi. Bir so'z ichida bir qo'sh undosh pp, tt, gg bir tovushni ifodalaydi.

masalan: happy, better, bigger.

Ayrim hollarda horse[ ] + shoe[ ] =horseshoe[ ], news[ ] + paper[ ] = newspaper [ ], shaklida assimilatsiya hodisalari kuzatiladi. bu hodisa xuddi o'zbek tilidagi assimiliyatsiyaga o'xshaydi.

O'quvchilar yondosh undoshlarni talaffuz etayotganlarida quyidagi xatolarga yo'l qo'yish mumkin:

1. So'z boshida kelgan yondosh undoshlarorasiga ayiruvchi yor unli qo'shib dress, plan, class so'zlarini [ ], [ ], [ ] tarzida talaffuz etadilar.

2. So'z oxirida kelgan yondosh undoshlarni ham ikki xil talaffuz etadilar:

yondosh undoshlar orasiga tor unli qo'shib desk, little, correct, best, bench, six so'zlarini [ ], [ ], [ ], [ ], [ ], [ ] tarzida;

yondosh undoshdan so'ng ham unli qo'shib, old, jump, think so'zlarini [ ], [ ], [ ] tarzida aytadilar.

3. so'z oxiridagi yondosh undoshlarning oxirgi tovushini tushurib text, last, best, must so'zlarini [ ], [ ], [ ] shaklida, hand, land, England so'zlarini [ ], [ ], [ ] shaklida, absent, present so'zlarini esa [ ], [ ] shaklida aytadilar.

Yondosh undoshdan boshlangan otning talaffuzini o'rgatishda otdan oldin artikl qo'yib aytilsa ancha osn bo'ladi. Masalan: a plan, a tram, a class va hokoza. Shuningdek, o'qituvchi predmetlar tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib savol-javob o'tkazish ham mumkin:

O'qituvchi: What can you see in the picture?

O'quvchi: We can see a pencil/desk in the picture.

Yondosh undoshlar talffuzida yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish uchun quyidagi mashq

o'tkazish tavsiya etiladi:

[sp t]	[skw ]	[stri:t]
t		i:t
p	kw	ri:t
p t	skw	tri:
sp t	kw	str
sp ts	skw	stri:t
	skw z	stri:ts

### So'z oxirida jarangli undoshning jarangsiz talaffuz etilishi

Ingliz tili artikulyatsiya bazasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri so'z oxiridagi jarangli undosh tovushning aniq talaffuz etilishidir. O'quvchilarning talaffuzlari yuzasidan olib borilgan kuzatishlar hamda ingliz tili fonetikasiga tipik xatolar analizi shuni ko'rsatadik, ko'pchilik o'quvchilar so'z oxiridagi jarangli undoshni jarangsiz talaffuz etadilar. Ko'pincha o'zbek tilida so'z oxiridagi jarangli undosh jarangsizlashgani bois o'quvchilar bu holatni ingliz tiliga ko'chiradilar.

O'zbek tilida jarangli undoshni jarangsizlashib ketishini quyidagi misollarda yaqqol ko'rish mumkin:

kitob /p/,	belbog'/q/
barg/k/	behad/t/

Ingliz tilida jarangli va jarangsiz undoshlarning juftlari mavjud: [b-p], [g-k], [d- t], [z-s], [v-f], [ - ], [ - ], [ - ] .

Ayrim mustasno hollarni hisobga olmaganda bu tovushlarning jarangli va jarangsizligi hamisha saqlanadi.

Hatolarni bartaraf etish uchun jarangli o'rnida jarangsiz undosh talaffuz etish natijasida so'z ma'nosining o'zgarib ketishi mumkinligini o'quvchilarga tushuntirish talab etiladi:

pig (cho'chqa)	pick (termoq)
age (yosh)	h (alfabetdagi harf)
sad (g'amgin)	sat (sit fe'lining o'tgan zamoni)

bad (yomon) bat (ko'rshapalak) va hakoza.

Jarangli undoshlarni jarangsiz talaffuz etishni bartaraf etishda grammatik material - noaniq hozirgi zamon fe'lining III shaxs birlik shakli, otlarning ko'plik shaklidan foydalanib mashqlar o'tkazish samaralidir.

O'qituvchi: I have a dog.

O'quvchi: We have dogs.

O'qituvchi: We write with a pen.

O'quvchi: We write with pens.

O'qituvchi: They read many books.

O'quvchi: He reads many books.

Mashqni o'tkazishdan avval o'quvchilarga vazifa beriladi: otni ko'plikda, noaniq hozirgi zamon fe'lini III shaxs birlikda qo'llang.

#### Unlilar talaffuzidagi qiyinchiliklar

Unlilarni cho'ziq va qisqa talaffuz etish natijasida so'z ma'nosi o'zgarib ketadi, ya'ni unlilarni cho'ziq yoki qisqa talaffuz etishning fonematik (ma'no o'zgartiruvchi) ahamiyati bor. Juft unlilar [i: - i], [u: - u], [ɔ: - ] dan tashqari [a:], [ɔ:] kabi cho'ziq unlilarni ham alohida mashq qilish kerak. Bu unlilar ham sifat, ham miqdor jihatdan o'zbekcha unlilardan farq qiladi.

Ma'lumki, o'zbekcha unlilarning qisqa yoki cho'ziq talaffuz etilishi so'z ma'nosiga hech qanday putr yetkazmaydi. Ikkala tilning o'ziga xos xususiyatlarini sodda til bilan o'quvchilarga tushuntirgach, [i:] - [i], [ɔ] - [ɔ], [u:] - [u], [a:] - [a], [ɔ:] - [ɔ] tovushlariga mashq beriladi:

eat	it
sheep	ship
seat	sit
lead	lid
feel	fill

O'quvchilarning taqlid qilish qobiliyatiga qarab, mashq individual va xor bilan bajariladi:

[ɔ] - [ɔ] - [ɔ]



sport	spot
port	pot
forks	fox
wart*	what

\*( small hard lump that grows on skin and is caused by a virus)

Cho'ziq [ ] unlisining talaffuzida o'quvchilar ona tilidagi fonetik materialdan foydalanishlari maqsadga muvofiq. O'zbek tilidagi g' va ng undoshlari oldida talaffuz etiladigan o unlisi inglizcha cho'ziq [ ] ga yaqindir. Masalan: og'iz, tong so'zlaridagi o bunga misol bo'la oladi. Undan tashqari cho'ziq tovushlar talaffuzini mustahkamlashda quyidagicha mashq o'tkazish maqsadga muvofiqdi:

Part – port

Park – pork

Four – fir (tree)

Walk – work

Form – firm

Tovushlarni mashq qilishda alohida jadvallardan foydalaniladi. Jadvallarda ma'no o'zgartiruvchi unililarni o'z ichiga olgan so'zlar, ularning rasmlari va hakozolar beriladi. So'zlar talaffuzi mashq qilingach ular gaplarda berilishi kerak. Masalan [i:] va [i] tovushiga doir quyidagicha mashq o'tkazish mumkin:

O'qituvchi (qo'yning rasmini ko'rsatib): Can you see a sheep or a ship in the picture?

O'quvchi: We see a sheep in the picture.

O'qituvchi (kema rasmini ko'rsatib): Now, what do you see?

O'quvchi: We see a ship in the picture.

Bundan tashqari cho'ziq va qisqa unlini o'z ichiga olgan so'zlarni tushurib qoldirib, o'quvchilarga gaplarni tegishli so'zlar bilan to'ldirishini aytish mumkin.

- 1) I see a.....
- 2) I am on a.....
- 3) There are ..... Trees in the garden.
- 4) I see a ..... tree in the street.

O'quvchilar:

- 1) I see a sheep.
- 2) I am on a ship.
- 3) There are four trees in the garden.
- 4) I see a fir-tree in the street.

### Urg'uni noto'g'ri qo'yish

O'zbek o'quvchilariga ingliz tili urg'usini o'rgatish eng murakkab jarayon hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillarida urg'uga quyidagi asosiy qoidalarni qisqacha keltirish mumkin:

1. Ko'pchilik inglizcha so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi: 'lesson, 'junior, 'party.

Tarkibida old qo'shimchasi bo'lgan so'zlarda urg'u qo'shimchadan keyin qo'yiladi: mis'take, mis'trust va hokoza.

O'zbek tilida urg'u asosan so'z oxiridagi bo'g'inga qo'yiladi. Bu unlining sifatiga ta'sir qilmaydi.

2. Ingliz tilida jumla urg'usi hamma so'zga tushavermaydi: He is a 'schoolboy. My 'friend is a 'good 'girl.

O'zbek tilida nutq jarayonida deyarli hamma so'z urg'uli talaffuz etiladi.

3. Ingliz tilida ko'p bo'g'inli so'zlarga bosh va ikkinchi darajali urg'u qo'yiladi: 'misunder'stand.

Qo'shma so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi.

'apple-tree, 'tin-opener

O'zbek tilida ham ikki urg'uli so'zlar bo'ladi:

Bola'lar, yuring'lar

4. Ingliz tilida urg'uning o'rniga qarab so'z ma'nosi o'zgarib ketadi:

‘present – sovg’a

pre’sent – sovg’a qilmoq, taqdim etmoq

‘export – eksport

Ex’port – eksport qilmoq

5. Ingliz tilida urg’uli bo’g’inlarning urg’usizlaridan keskin farq qilish natijasida o’ziga xos ritm hosil bo’ladi. O’zbek tilida urg’uli bo’g’inlar urg’usizlaridan kam farq qiladi.

In the ‘morning / ‘Lucy and ‘I / ‘go to the ‘library.

Lusi va men /ertalab/ kutubxonaga boramiz.

O’quvchilar urg’u qo’yishda turli xatolarga yo’l qo’yadilar. Masalan: [ d ‘p n] o’rniga [d pn], [ t ai’ni:z] o’rniga [‘t ainiz] va hokoza.

Ingliz tilida urg’uni qo’yishga o’rgatishning metodik usullariga quyidagilarnikiritish mumkin:

1. O’qituvchi yoki diktor urg’uli bo’g’inni cho’zibroq, biro z kuchliroq[ ‘t il...dr n], [ ‘pju...plz] tarzida talaffuz etib ko’rsatadi. O’quvchilar taqlid yo’li bilan takrorlaydilar.
2. Xalqaro va qo’shma so’zlarga mashq beriladi. Masalan:  
Crossword  
Football  
Internet  
Airport  
Well-dressed  
Never-ending
3. Ingliz tilidagi urg’uning o’rnini almashtirish natijasida so’zlar mazmuni o’zgarib ketishini tasvirlovchi mashq o’tkaziladi:

Noun	Verb
'import	im'port
import	import qilmoq
'record	re'cord
qayd	qayd qilmoq
'desert	de'sert
sahro	tark etmoq
'conflict	con'flict
nizo	qarama-qarshi bo'lmoq

4. Darsni boshlashdan oldin sinfda o'tilgan o'quv materiallaridan foydalanib, urg'uni mustahkamlashga doir maxsus fonetik mashq o'tkazish mumkin.

5. Urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadigan so'zlardan gaplar tuzish talab etiladi.

Masalan:

We cor'rect our mis'takes.

She studies at 'uni'versity.

You can re'cord this into your mobilephone.

6. Urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadigan so'zlar ishtirokida savol-javob mashqi o'tkazilishi mumkin.

a) O'qituvchi: Can you repeat the word?

O'quvchi: Yes, I can "address"

b) O'qituvchi: When will you go to the museum?

O'quvchi: We shall go to the museum at eleven o'clock tomorrow.

c) Who decided to discuss it again?

O'quvchi: We did. They also decided to discuss it again.

Bu mashqni o'tkazishdan oldin urg'u ikkinchi bo'g'iniga tushadigan so'zlar talaffuzi alohida mashq qilinadi:

repeat

eleven

tomorrow

again                      o'clock                      discuss

museum

Ingliz tili intonatsiyasida yuz beradigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishning  
ayrim usullari

Ingliz tili o'rgatishning dastlabki bosqichida asosan pasayuvchi va ko'tariluvchi ohanglarni bilish talab etiladi. Tildagi mazkur ohanglarni o'quvchilar puxta o'zlashtirishlari zarur.

Malumki, ingliz tilida pasayuvchi intonatsiya darak gaplarda, maxsus so'roq gaplarda, buyruq va undov gaplarda qo'llanadi. Masalan:

Darak gaplar

I am reading a book which is called "Secret".

There is a very beautiful garden in front of my house.

George is not at home. He is away.

Maxsus so'roq gaplar

Why are you looking at me like that?

Mom, where is my watch that dad gave me on my birthday?

Hey guys, whose pen is this?

Who is that man talking to an old lady?

Buyruq gaplar

Go to bed right now. You shouldn't be watching TV till so late!

Come on in! Be quick. We have already started lesson.

Open your books.

Undov gaplar

What a delicious meal!

What an amazing travel!

I can't believe that you are present! I didn't expect.

Here you are!

Ko'tariluvchi intonatsiya ko'makchi yoki mustaqil fe'l bilan boshlanadigan umumiy so'roq gaplarda, iltimosni ifodalovchi gaplarda, to'liqsiz gaplarda, uyushiq bo'lakli gaplarda qo'llaniladi.

Umumiy so'roq gaplar

Can you speak other languages besides English and Russian?

Have you got a laptop?

Is this your notebook?

Would you like to go Paris?

Do you go to University by subway everyday?

Iltimosni ifoda etuvchi gaplar

Can you open the door?

Repeat your question, please!

Help me to move this table, please.

To'liqsiz gaplar

I know...

If I had a book...

It is not bad

I see... but...

Uyushiq bo'lakli gaplar

They can read, write, speak...

There are books, computers...

Ann, Tom, John...

So'roq- tanlov gaplarning birinchi qismida ko'tariluvchi, ikkinchi qismida esa pasayuvchi intonatsiya ishlatiladi:

Are you going to take IELTS exam in this month or later?

Is this your memory card or your brother's?

Ajratuvchi so'roq gaplarning birinchi qismida pasayuvchi, ikkinchi qismida esa ko'tariluvchi intonatsiya qo'llanadi:

Shahnoza is a good student, isn't she?

You can speak Korean, can't you?

Your sister works in a foreign company, doesn't she?

Ohangning boshqa turlari ham bor. O'zbek tilida ingliz tilidagidek yorqin ifodalanmaydi.

Ingliz tilidagi maxsus so'roq gaplar intonatsiyasida o'quvchilar malum qiyinchiliklarga duch keladilar. Chunki ingliz tilida maxsus so'roq gaplar so'roq so'z bilan boshlanadi, o'zbek tilida esa so'roq so'z ko'pincha fe'l oldida qo'llaniladi. Masalan:

What do you see in the picture?

Rasmda nimani ko'ryapsiz?

Umumiy so'roq gaplarda ko'makchi, modal fe'l gap boshida keladi, o'zbek tilida esa bunday so'roq gaplar -mi ko'makchi yordamida yasaladi. Urg'u shu ko'makchiga tushadi, hamda u baland ovoz bilan aytiladi. Masalan:

Is he a student?

U talabami?

Og'zaki nutqda intonatsiyaning rolini yaxshi tushunmagan o'quvchilar ingliz tilidagi birinchi urg'uli bo'g'inni yetarli darajada baland ovoz bilan talaffuz etmasliklari hamda tovush ohangini asta-sekin ko'tarishni bilmasliklari mumkin. Metodist J.Jalolov intonatsiyani o'rgatishda quyidagi usullardan foydalanishni tavsiya etadi:

1. Gaplarni o'qish va og'zaki aytish bilan ingliz va o'zbek tillaridagi intonatsiya chog'ishtiriladi. Bundan maqsad ona tili va chet tilidagi intonatsiyaning farqini ko'rsatish hamda ularni almashtirishning oldini olishdir. O'qituvchi yoki diktorga aytgan jummalarni o'quvchilar individual va xor bilan takrorlaydilar.

2. Ikkala tildagi intonatsiyaning to'g'ri aytilishiga erishish maqsadida ona tilidan ingliz tiliga tarjima qilish uchun mashqlar beriladi.

Intonatsiyani o'rgatish jarayonida diktor o'qigan namuna gaplarning ahamiyati kattadir. Undan tashqari o'quvchilar nutqini diktofonga qayd qilish ham foydali. Intonatsiyani o'rgatishda imitation yani taqlid metodi asosiy omillardan hisoblanadi. Savol-javob mashqlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi o'qiyotganda yoki fonogrammadan diktor nutqini eshitish jarayonida o'quvchilar intonatsiyani belgilab borishlari mashq qilinadi. So'ngra ular matnni individual holda o'qiydilar. Diktor yoki o'qituvchi nutqi bilan diktofonda qayd qilingan o'quvchi nutqini solishtirish ham foydalidir. Menimcha, ingliz tilidagi kinolarni ko'proq ko'rish, radiodabn inglizcha nutqlarni eshitish va ularga taqlid qilish intonatsiyani o'zlashtirishda yaxshi samara beradi.

### **1.2. Inglizcha talaffuzni o'rgatish metodlari, usullari va vositalari**

Psixolog, metodist va fonetistlarning fikrlarini tahlil qilish talaffuzga o'rgatishga turli yondashuvlar mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan, ba'zi fonetistlar jumladan, N.D.Klimov o'quvchilarni avval artikulyatsion harakatlarni idrok etishga o'rgatib, so'ngra talaffuz qildirish kerak degan fikrni olg'a suradilar. Ushbu yo'nalish tarafdorlarining fikricha o'quvchilar nutq organlarining harakatini seza olish, ularni boshqara olishlari uchun ovozsiz nutq gimnastikasini bajarishlari lozim. Jumladan, nafas olish va nafas chiqarish, artikulyatsiyaga oid til, lablar, jag' harakatlariga doir mashqlar. Bunday mashqlarga og'izni oching va oynaga qarab tilingiz uchini labingiz bo'ylab avval chapdan o'ngga, so'ngra undan aylana harakat qildiring kabilar va boshqa turli og'iz harakati mashqlari kiradi.

Talaffuzga o'rgatish jarayonidagi yana bir yondashuv til o'rgatishning tabiiy qonunyatiga asoslanadi. Malumki, bola ona tilini tabiiy sharoitda taqlid qilish yo'li bilan o'rganadi. U so'zlarni talaffuz qila oladigan bo'lgunga qadar ularni juda ko'p marta tinglaydi. Bolada asta -sekin nutqni tinglash qobilyati shakllana boradi. Shunga ko'ra o'quvchilarda avval nutqni tinglash qobilyati, so'ngra talaffuz



ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish tavsiya qilinadi. Biroq shuni hisobga olish kerakki, tovushlarni talaffuz qilish so'zlash, tinglash mexanizmlarining uzviy bog'liq bo'lgan harakatiga asoslanadi. Masalan biz so'zlarni talaffuz qilish jarayonida bu so'zlarni eshitamiz ya'ni tinglash nazorati bilan talaffuz qilamiz. Talaffuzimizdagi xatoni va kamchilikni tinglash nazorati yordamida to'g'irlaymiz. So'zlarni talaffuz qilish faqat nutqiy harakat emas, balki bir vaqtning o'zida tinglash harakati hamdir.

Ikkinchi tomondan, N.I.Jinkin aytganidek, tinglab idrok qilish tinglash, nutqiy va ko'rish sezgilarining hamkorlikdagi faoliyatini taqozo qiladi. Nutqiy harakatsiz tinglash mumkin emas.

S.I.Bernshteyning fikricha, biz to'g'ri talaffuz qila oladigan tovushlarnigina to'g'ri eshitamiz. Yetarli darajada shakllanmagan artikulyatsion ko'nikma noto'g'ri eshitishga olib keladi. Natijada o'quvchi o'z talaffuzidagi xatolarni sezmaydi, talaffuzi va o'qiyuvchi yoki diktorning nutqi namunali nutqi o'rtasidagi farqni anglamaydi. Talaffuzga o'rgatishda o'quvchini aynan shu farqni idrok qila olishga o'rgatish lozim.

O'quvchini talaffuzga o'rgatish jarayonida albatta uning nutqni tinglash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish kerak.

“Nutqni tinglash qobiliyati uch komponentdan tashkil topadi:

1. Fonematik tinglash qobiliyati
2. Fonetik tinglash qobiliyati
3. Intonatsion tinglash qobiliyati”<sup>1</sup>

Fonematik tinglash qobiliyati nutq tovushlarining ma'no ajratuvchi xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: cho'ziqlik – qisqalik, lablanganlik – lablanmaganlik.

---

<sup>1</sup> Saidumar Saidaliyev. “Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar” 1992.92b

Fonetik tinglash qobilyati esa nutq tovushlarining fonetik ( ma'no ajratmaydigan ) xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: portlovchi p, t,k tovushlarining zarb bilan, so'z boshidagi unilarning qattiq zarblanishi bilan talaffuz qilinishi.

Intonatsion tinglash qobilyati esa jumlaning intonatsion strukturasi farqlash va uni tilning intonatsion qolipi bilan biriktirish, aloqaga kirishdan iboratdir.

O'rta maktablarda asosan o'quvchilarning fonematik va intonatsion tinglash qobilyatini o'stirish lozim. Chunki bu qobilyatlarsiz nutqni tushunish va talaffuz qilish mumkin emas. Ushbu qobilyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi o'quvchilar nutqida fonologik va intonatsion xatolarni keltirib chiqaradi. Masalan: cho'ziqlik va qisqalikni farqlamaydilar, natijada so'zning mazmuni noto'g'ri tushuniladi.

Talaffuzni o'rgatish talaffuz materiallarinig xususiyatiga bog'liqdir. Bunga ko'ra turli metodlar ishlab chiqilgan.

1- metod. Imitation.

Tovush talaffuzini tinglab, aynan o'zini qaytarish yani taqlid qilib o'rgatish metodi. Bu quyidagi bosqichlardan iborat:

- a) Yangi tovush so'zda yoki nutq namunasida o'qituvchi tomonidan talaffuz qilinadi;
- b) O'qituvchi tovushni ajratib olib, harf yoki transkripsiya orqali doskada ko'rsatadi;
- c) O'qituvchi tovushni talaffuz qilishni ko'rsatib, o'zi uni bir necha marta talaffuz qiladi;
- d) Tovush o'quvchi va talabalar tomonidan taqlid qilinib, birgalikda jo'r bo'lib yoki yakka talaffuz qilinadi;
- e) O'quvchilar o'rganayotgan tovushlari bor so'zlarni, jummalarni talaffuz qiladilar;

f) O'rganayotgan tovush va tovush birikmalarni nutq faoliyatida qo'llaydilar. Taqlid qilish ongli bo'lishi yoki unda ong kam ishtirok etishi mumkin. Ongli taqlid qilish analiz-sintez orqali bo'ladi.

2 - metod. Tushuntirish metodi.

Tushuntirish metodi asosan ona tilidagi tovushlar bilan qisman o'xshash, umuman yo'q bo'lgan tovushlarni o'rgatishda qo'llaniladi. Bu yerda o'qituvchi o'zi talaffuz qilishidan oldin tovushni talaffuz qilishning o'rnini, xususiyatini tushuntiradi, ko'rsatadi. So'ng talaffuz qiladi, o'quvchilar va talabalar taqlid qilib, yakka talaffuz qiladilar. Tushuntirish va taqlid bir-birini to'ldiradi, ammo ular ikki xil metoddir.

### Inglizcha talaffuz o'rgatish usullari

Talaffuzga o'rgatish jarayonida qaysi usullardan foydalanish auditoriyaga bog'liq. Buning uchun ingliz tilini va o'quvchilar ona tilisini hisobga olish zarur. Talaffuzni o'rgatishning metodlaridan qaysi biridan foydalanishni aniqlash uchun o'rganilayotgan til tovushlar tizimini o'rganuvchi ona tili tovushlari tizimi bilan taqqoslash kerak.

Malumki, chet tili va ona tilini qiyosiy o'rganish natijasida chet tili tovushlari ta'lim maqsadlariga muvofiq guruhlarga bo'linadi:

1 – guruhga artikulyatsion va akustok jihatdan ona tili tovushlariga yaqin keladigan tovushlar kiritiladi. Ularni o'quvchilarga tanishtirishda maxsus ish olib borilmaydi. O'quvchilar bu tovushlarni o'qituvchiyoki diktorga taqlid qilish yo'li bilan o'zlashtirib oladilar

2 – guruhga umumiy xarakteristika bilan ona tili tovushiga o'xshash, lekin ona tili tovushlaridan muhim tomonlari bilan farq qiladigan tovushlar kiradi. Ushbu tovushlarni o'quvchilar ona tili tovushlariga o'xshatib yuboradilar. Shuning uchun ham bu guruhga kiruvchi tovushlar bilan o'quvchilarni tanishtirishda barcha

usullardan yani artikulyatsiyani tasvirlash, chet tili va ona tili tovushlari bilan taqqoslash, ko'rsatish, taqlid qilish va boshqalardan foydalanish lozim.

3 – guruhga ona tilida artikulyatsion va akustik jihatdan o'xshash bo'lmagan tovushlar kiradi. Bu tovushlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda yangi artikulyatsion baza yaratish zarur. Xullas, talaffuzni o'rgatish tovushning oson yoki qiyinlik darajasi bilan bog'liq. Chunonchi, o'quvchi ona tilisi yoki til tajribasi nuqtai nazardan quyidagi birliklarni farqlash mumkin:

- O'xshash
- Yaqin
- O'xshamaydigan

Talaffuzga nutq namunalari, jumlar, so'zlar asosida yoki ayrim tovushlar ustida ishlash yo'li bilan o'rgatish mumkin. Zamonaviy metodikada talaffuzga o'rgatish nutq faoliyatiga o'rgatish asosida tashqili qilinishining taqozo qilinishi munosabati bilan nutq namunalari bilan ishlash samarali natija bermoqda. Nutq namunalari asosida talaffuzga o'rgatishda ikki yo'ldan foydalanish mumkin. Qaysi yo'lni tanlab olish yuqorida ta'kidlangan tovush guruhlariga bog'liq.

Birinchi guruh – ona tili tovushlariga yaqin tovushlar bilan ishlaganda ularni nutq namunasi tarkibidan ajratib olinmaydi. O'quvchilar bu tovushlarni taqlid qilish orqali o'zlashtirib oladilar.

Ikkinchi va uchinchi guruhlariga mansub bo'lgan – ona tili tovushidan farq qiladigan va ona tilida yo'q bo'lgan tovushlar ustida alohida ishlash zarur. Ma'lum bir tovush o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi, o'quvchilar bu namunalarni anglab olgach, tovush namunadan ajratib olinadi. Ajratib olingan tovush tahlil qilinadi, artikulyatsiyasi tushuntiriladi va taqlid qilish asosida jiddiy mashq qilinadi. So'ngra u yana namunaga qo'shiladi va mashq qilinadi. So'ngra asosiy ish intonatsiya, xususan , jumla urg'usi, pauza va ohang ustida quyidagicha ish olib boriladi:

- 1) Tovushni namoyish qilish;
- 2) Talaffuz qilish usulini tushuntirish;
- 3) Farqlashga oid mashq bajarish;
- 4) O'quvchilar yangi tovushni talaffuz qilishi;

Namoyish qilish o'qituvchi tomonidan konkret tovushni alohida, so'zda, jumlada aniq talaffuz qilinishini taqozo etadi. Bu o'rinda ikki yo'l mavjud. O'qituvchi alohida tovushdan jumlagi yoki jumladan alohida tovushga qarab bo'rish mumkin. O'qituvchi jumlaning talaffuz qiladi. Jumlada ishtirok etgan so'zlarni taqlid bilan talaffuz qiladi, so'ngra tovushni ajratib, yakka holda talaffuz qiladi. O'qituvchi tovush talaffuzidagi nutq organlari holati va harakatini o'quvchilarga tushuntiradi.

Tovushning talaffuz qilinish usulini tushuntirish ma'lum tovushning xususiyatiga bog'liq. O'qituvchi o'rganilayotgan tovushning talaffuzidagi nutq organining holati va harakatini, bu holat va harakatning ona tilidagi o'xshash tovush bilan solishtirib ko'rsatish kerak. Bu solishtirish sodda, o'quvchi uchun tushunarli va qisqa bo'lishi lozim. Tovushning talaffuzini o'rgatishda ko'rish, eshitish, motor (aytish) sezgilariga asoslanish yaxshi samara beradi.

Farqlashga oid mashq bajarish o'quvchi o'rganayotgan tovushning boshqa tovushlardan farqini yaxshi anglab olishga yordam beradi. O'qituvchi o'rganilayotgan tovushni o'quvchilar ko'proq adashtirib qo'yadigan ingliz tili va ona tili tovushlari bilan talaffuz qiladi va farqni ko'rsatadi.

So'ngra ushbu tovushlarni o'quvchilar takrorlaydilar. Bu bilan o'quvchilar mashq bosqichiga o'tadilar. Mashqni boshlashdan avval o'qituvchi yana bir marta tovushning xususiyatini eslatib o'tadi va o'quvchilar jo'r bo'lib takrorlaydilar. Nihoyat o'quvchilar alohida bo'lib navbat bilan talaffuz qiladilar.

Bu ishlar tovushdan bo'g'in, so'z, so'z birikmasi, jummalarga o'tish orqali olib boriladi.

## Inglizcha talaffuz o'rgatish vositalari

Ta'lim jarayonining maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirishni ta'minlovchi vositalar ta'lim vositalari deb yuritiladi. Chet tili o'qitishning turli o'qitish vositalari mavjud. Ingliz tili o'qituvchisi ulardan foydalanib o'quvchilarga, talabalarga til materiallarini o'rgatadi, tushuntiradi, malaka va ko'nikma hosil qiladi. Ular yetishmasa yoki bo'lmasa o'quvchilarga ingliz tilidan to'liq bilim berish qiyinlashadi. Vositalarni qo'llash tez tushunishga, ongli o'zlashtirishga, xotirada saqlashga yordam beradi. Biz inglizcha talaffuzni o'rgatishda turli xil vositalardan foydalanishimiz mumkin. Bu vositalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Yordamchi vositalar
2. Notexnik vositalar
3. Texnik vositalar

### Yordamchi vositalar

Kam vaqt va kam kuch sarflab ta'lim jarayonini maqsad va vazifalari samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladigan barcha materiallar ta'limning yordamchi vositalarini tashkil qiladi. Ular yordamida til materiali, jumladan, leksik, fonetik, grammatik hamda mavzular, matnlar bilan tanishadilar. Ularni o'zlashtiradilar va nutq faoliyatining turlarida ko'nikma va malakalarini shakllantiradilar va o'zlashtiradilar.

Ta'limning yordamchi vositalariga

- Tinglash, auditiv vositalar
  - Ko'rish, vizual vositalar
  - Ko'rib – eshitish, audio-vizual vositalar hamda darslik va qo'llanmalar kiradi.
- Ta'limning barcha yordamchi vositalari ikki guruhga bo'linadi:

1. Ta'limning notexnik vositalari

## 2. Ta'limning texnik vositalari

Notexnik vositalarga darslik, qo'llanma, xaritalar, rasmlar, jadvallar, chizmalar, otkritkalar, flanelegraf, turli xil predmetlar kiradi.

Darslik. Chet tili ta'limida og'zaki va yozma nutqda o'rgatish uchun mo'ljallangan alohida darslik hamda bir vaqtning o'zida nutq faoliyatining ham yozma turiga o'rgatuvchi, shuningdek til materiallari, jumladan talaffuz, grammatika va leksikani o'rgatuvchi darsliklar mavjud. Darslik o'quvchi uchun qo'llanma bo'lib amalaviy ishlash faoliyatining quroli va o'qituvchi oldiga qo'ygan vazifani amalga oshirishda asosiy vositadir.

G. V. Rogova darsliklarni o'quvchilarga inglizchani o'rgatish va o'qituvchi uchun asosiy vosita deb belgilaydi.

I.L.Binning fikricha hozirgi davr darsligi o'qitish tizmining mikro moelidir. Unda o'qitish tizimining barcha componentlari bayon qilinadi. Ko'pincha darslikni o'qitish yoki ta'lim berish modeli, o'qituvchi kitobini esa ta'limni amalga oshirish modeli deb tushuniladi. Ta'lim jarayonida darslik o'quvchi uchun ilm manbai hisoblanadi. Darslikning mazmunini mashqlar tashkil qiladi. O'rta maktablar uchun darsliklar kompleks yondashish tamoyili asosida ko'rilgan. Bular qatoriga talaffuzni o'rgatish uchun mashqlar, tovushlar transkripsiyasi kiritilgan. Biroq darslik jonli ovozni o'zida mujassamlashtirmaydi. Shuning uchun ham darsliklarga ilova qilib fonagramma tayyorlanadi.

Magnit doska. Bu doska orqali o'qituvchi turli rasmlarni so'zlarni, kartochohalarni o'quvchilarga ko'rsatib, darsni tashkil qilishi mumkin. Ko'rgazmalarni kichik bir magnit orqali vaqtincha unga yopishtirib qo'yib, dars jarayonida foydalanadi. Masalan: magnit doskaga yopishtirilgan kartochokadagi so'zlarning transkripsiyasini yozdirish yoki transkripsiya berilgan bo'lsa uni harflar bilan yozish va so'ng ularni talaffuz qilish kabilar.

Rasmlar. ( fotografiya, portret, rasmlar qatori, flanelegraflar)

Rasmlar predmet va hodisalarning haqiqiy ko'rinishini tasvirlaydi. Shuning uchun ham ular ingliz tilidagi so'z, Grammatik hodisa, transkripsiya va tegishli tushuncha o'rtasida aloqa o'rnatish uchun xizmat qiladi, til materialidan foydalanishni osonlashtiradi, ko'rish tayanchining borligi uchun ushbu til hodisasini o'quvchi osonlik bilan esda saqlab qoladi. Rasmlar yordamida nutqga undovchi situatsiyalar yaratish mumkin.

Rasmlar til materiallari bilan tanishtirish, uni mustahkamlash, fotografik ko'nikmalarni shakllantirishda, gapirish va yozuv malakalarini rivojlantirishda va nazoratni amalga oshirishda keng qo'llaniladi. predmetlar va predmetlar guruhini ifodalovchi rasmlar so'zning ma'nosini ochish, talaffuzini o'rganish va uni mustahkamlash uchun qo'llaniladi. N.V.Yeluxina rasmlar yordamida quyidagi mashqlarni taklif qiladi:

Rasmlarda tasvirlangan predmetlarni atash, nomi atalgan predmetning rasmini ko'rsatish, kalit so'zlar yordamida yoki ularsiz predmetni tasvirlash, o'ylab qo'yilgan predmetlarning nomini rasmlarga qarab tez topish va boshqalar.

Talaffuzni o'rgatish leksika va grammatika bilan birgalikda olib boriladi va yuqoridagi mashqlarni o'quvchi bajarayotganda uning talaffuziga ham e'tibor berilib, xatolari to'g'rilanadi. Bu rasmda berilgan so'zlar talaffuz qildiriladi: xo'r bo'lib va alohida.

Biror voqeani tasvirlovchi rasmlar qatori, Grammatik, leksik, fonetik material bilan tanishtirish va ularga doir mashq bajarish uchun qo'llanadi. Bunday rasmlar qatori gapirish va yozish malakalarini oshirish uchun ham keng qo'llaniladi.

Sxema, jadval, chizma, xaritalar o'rganilgan fonetik va grammatik materiallarni bir tizimga solish, fonetik material ( tovush – intonatsiya ) bilan tanishtirish uchun xizmat qiladi.

### **1.3. Inglizcha talaffuzni o'rgatishda qo'llaniladigan texnik vositalar**



Inglizcha talaffuzni o'rgatishda texnik vositalarning o'rne muhimdir. Ular orqali o'qituvchi inglizcha tovush, so'zlarni, tovush birikmalarni o'quvchilarga tinglatadi, talaffuz qildiradi, xatolarni topishga o'rgatadi.<sup>1</sup>

Biz darslarda texnik vositalarni qo'llaganimizda sun'iy tili muhitini yaratamiz, ingliz tilining ko'rgazmali qilib ko'rsatishimiz, tinglab tushunishni o'rgatish hamda o'quv jarayonini jonlashtirishimiz, faollashtirishimiz, qiziqarli tashkil qilishimiz mumkin.

Inglizcha talaffuzni o'rgatishda foydalanadigan texnik vositalarga quyidagilar kiradi:

Real player, diktafon, radiopryomnik, proektor ( diapozitiv, slayd), filmaskop (diafilm), ovozsiz filmga mo'ljallangan kinoqurilma, videomagnitafon, televizor. Shuningdek, hozirgi kunda tez-tez foydalaniladigan lingafon kabinet, DVD, turli ta'lim disklari, kompyuterlar, netbuk va noutbuklar hamda jahonning turli kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan texnika vositalari, jumladan, mobil qurilma, video o'yinlar, Invetek Besta CD-785 elektronik qurilmalarini kiritishimiz mumkin.

**Fonogramma** – bunday vositalarga real player, magnitafon, diktafon, radiopryomnik kiradi. Fonogrammalarni 8 tipga bo'lishimiz mumkin: 1) tinglab tushunish, 2) nutq materiallarini o'rgatish, 3) dialogni o'rgatish, 4) tabiiy dialogni o'rgatish, 5) til materiallarini o'rgatish, 6) gapirishni o'rgatish, 7) dialog shaklida so'zlashni o'rgatish, 8) nutq mashqlarini bajarishimiz mumkin

Fonogrammalardan foydalangan holda, fonetik, og'zaki nutq mashg'uloti, taqlid qilish, tinglash, grammatik strukturalarni nutqda taniy olish mashqlarini bajarishimiz mumkin.

Malumki, og'zaki nutq ko'nikma va malakalarini o'stirish uchun til muhiti zarur. O'qituvchi til muhitini fonogrammasiz yaratishga ojizlik qiladi. Chunki til muhiti

---

<sup>1</sup> O'.Hoshimov. I.Yoqubov. "Ingliz tili talaffuzini o'qitish metodikasi" T-2003.83b

bo'lishi uchun o'quvchi o'zgalar nutqini tinglashi lozim. Real player, video magnitafonni qo'llash bu imkoniyatni yaratadi. Spektakllar, aktyorlarning chiqishlari, ilm-fan hodimlarining nutqlari yozilgan video tasmlar, disklar mavjud. O'rta maktablar uchun tayyorlangan bunday vositalarnig mazmunini darslik materialining bir qismi (dialoglar, mashqlar) va boshqa ko'pgina materiallar (she'rlar, ashulalar, tez aytishlar) tashkil qiladi. Shuningdek, ingliz tili talaffuzini, intonatsiyasini hamda leksika, grammatikasini o'rgatishda, tinglab tushunish, gapirish malakalarini rivojlantirishda keng qo'llaniladi. tinglovchilar video tasmlardan, disklardan aktyor, diktora va fonetistlarning namunali nutqlarini tinglab tushunish va talaffuzni o'stirish uchun taqlid namunasiga ega bo'ladilar.. ular yordamida turli materiallar masalan, tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar, so'z birikmalari, jumlar mikromatnlar, she'rlar, ashulalar asosida mashqlar bajariladi. Bular tinglash mashqlari, tinglash -o'xshatish, tinglash- farqlash mashqlari bo'lishi mumkin. Fonogrammadan turli kishilarning nutqini masalan, erkak va ayol, ingichka va yo'g'on ovozni, yosh yoki keksaning ovozini, sekin, o'rtacha va tez tezlikdagi nutqni tinglash imkoniyatini beradi. Bunday mashqlarni bajarish o'quvchini tabiiy muomala jarayoniga tayyorlaydi.

Magnitafon ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan vositalardan biri, ammo hozirgi kunda bu vositaning o'rniga ko'proq DVD dan foydalanamiz. Bu texnik vositadan foydalanish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Magnitafonga ovozni yozib olish juda oson yo'l bilan amalga oshiriladi. Buning uchun faqat magnitafon va magnit tasma kifoya. Yozib olishni o'quvchi yoki o'qituvchi amalga oshirishi mumkin.

O'quvchi nazorat maqsadida o'z nutqini yozib olishi va o'qituvchining ishtirokisiz magnitafon bilan mustaqil ishlashi mumkin. Bu imkoniyat gapirish malaka va ko'nikma malakalarini shakllantirishni, talaffuzni to'g'irlashni osonlashtiradi. Magnitafon ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Magnitafon til materialining barcha turlari fonetika, leksika, grammatika bilan

ishlashda keng qo'llaniladi, hamda ta'limning barcha bosqichlarida: til materiali bilan tanishtirish, mashq qilish va nutqiy amalyot jarayonida foydalaniladi.

Magnitafon bilan bajariladiga mashqlar

Magnitafondan auditoriyada, laboratoriyada va uyda foydalanish mumkin.

M.V.Lyaxovskining fikricha magnitafon bilan talaffuzni o'rgatishda quyidagi tayyorlov mashqlarini muvaffaqiyatli bajarish mumkin:

- 1) Akustik va artikulyatsion ko'nikmalarni shakllantirish, so'zlarni va Grammatik hodisalarni esda saqlashga oid tinglash va takrorlash mashqlari;
- 2) Fonetik, leksik, Grammatik hodisalarni tanib olishga oid toppish, tanlash va ko'rsatish mashqlari;
- 3) Leksik va fonetik malakalarni rivojlantirishga oid sinonim, antonym, omonim, paronim ( homophone)lar bo'yicha mashqlar.

Bundan tashqarimagnitafon yordamida nutqiy mashqlar ham bajariladi. Bunday mashqlar ayniqsa tinglab tushunish va gapirish malakalarini rivojlantirish uchun o'quvchilarga magnitafon yoki DVD dan hikoyalar, dialoglar, turli nutqlar va boshqalar eshittiriladi. Ko'proq eshitish natijasida o'quvchining talaffuzi asta-sekin yaxshilanib boradi. Mashqlarni bajarayotganda yozma matnning bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Bunga sabab ko'rish a'zosi bir sekunda eshitish a'zosiga nisbatan olti yarim marta ko'p axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega. Shuning uchun tinglash paytida o'quvchi ko'z oldida matn tursa o'quvchi matnni tez yoki orqada qolib o'qishi mumkin va so'zlarning aynan talaffuziga yaxshi e'tibor bermasligi mumkin. Ammo tinglab tushunish qiyin bo'lgan nomlar, ismlar, sana va talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlar yozma ravishda o'quvchi ko'z o'ngida bo'lishi tinglab tushunishga o'rgatish samaradorligini oshiradi. Shunda o'quvchi talaffuzi qiyin so'zlarni ham o'rganishi osonlashadi.

Radio. Radio eshittirishning asosiy qulaylik tomoni shundan iboratki, u ko'p sonli til sohiblarining nutqini eshittirish imkononi beradi. O'rta maktab sharoitida maktab radiouzelidan foydalanish imkoni mavjud. Maktab radiouzeli eshittirishlaridan dars paytida, sinfdan tashqari tadbirlarda va tanaffus paytlarida foydalanish mumkin. Ingliz tilidagi radioeshittirish materialining qiymati shundaki, u maktab hayotining dolzarb voqealari haqida hikoya qiladi, turli qo'shiq, she'r, hikoyalar eshittiriladi. Bu tinglovchilarda qiziqish uyg'otadi va tinglab tushunish qobiliyatini o'stiradi.

Diapozitivlar xuddi magnet doskasi va flanelegraflarga o'xshab ketadi, ammo diapozitivlar texnik jihatdan kengroq imkoniyatga ega. Ular yordamida real hayot muhitini ko'rsatish ayniqsa tili o'rganilayotgan mamlakat tabiati, kishilari, shart – sharoiti, turmushi bilan qiyinchiliksiz tanishish imkoni tug'iladi. Biroq yuqorida aytib o'tilgan notexnik vositalar orqali predmet, voqea va hodisalarning turg'un holatigina tasvirlash imkoniyati mavjud. Ularning harakati, rivojlanishi va o'zgarishini ifodalash uchun ta'limning boshqa vositalarini yordamga chorlash ehtiyoji tug'iladi.

Diafilm va kinofilmlarning o'quvchilarning fikrni og'zaki va yozma bayon qilishga o'rgatishda qo'llaniladi. O'rta maktablarda maxsus o'quv diafilmlaridan mavzuga oid material tuzuladi va ma'lum darslik uchun qo'shimcha manbaa hisoblanadi. Ko'pchilik diafilmlar ovozsiz ishlab chiqariladi. Bunday diafilmlardan foydalanilganda o'qituvchi kadrlarni tasvirlaydi yoki kadrlarning tasviri oldindan magnet tasmasiga yozib qo'yiladi. Bunday vositalar til materiallari: fonetik, leksik va grammatik hodisalarni tanishtirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. O'quvchilar predmet yoki voqelikni ko'radilar va ushbu situatsiyada aytilishi mumkin bo'lgan jumlar namunasini tinglaydilar. Bu bilan o'quvchilarga taqlid qilish imkoniyati tug'iladi. Ular quyidagi mashqlarni bajarishlari mumkin. Masalan: diktorga taqlid qilib predmet, harakat nomlarini, nutq namunalarini takrorlash, predmetlarining o'rnini almashtirish, diktor tomonidan aytilgan nutq

namunasining o'rnini almashtirish, tasvirning o'zgarishiga qarab savollarga javob berish va hokazo.

**Kinofilmlar.** O'quvchilar kinofilmlar yordamida tilning amalda qanday ishlatilishi bilan tanishadi. Film orqali o'quvchi ma'lum situatsiyada nutq namunalarining qo'llanilishi, o'zini qanday tutishi, til sohibiga xos bo'lgan paralingvistik xususiyatlar bilan shuningdek so'zlar talaffuzi, gaplar ohangi bilan tanishadi. Filmni tomosha qilish jarayonida ko'rish va tinglash idroki birlashadi va o'quvchi bu ikki kanal orqali tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixi, geografiyasi, madaniyati, turmush an'analari va boshqalardan xabardor bo'ladi. Filmni tomosha qilish tilga qiziqish uyg'otadi. Emotsional ta'sir o'tkazadi. Bularning hammasi ta'lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Texnologiya rivojlangani sari hozirgi kunda electron jihozlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar ingliz tili o'rganuvchilari uchun turli moslamalar, programmalar yaratmoqda. Bular qatoriga elektron lug'atlar, Tell me more, My ET, ESL podcast kabi programmalar, video o'yinlarni kiritishimiz mumkin. Electron lug'atlarda so'zlarning amerika va Britanacha talaffuzlarini eshitish imkoniyati mavjud. So'zni kiritib, search funksiyasini bosamiz va AmE yoki BE simbollari ustiga sichqoncha tugmasining chap tomonini ikki marta bossak, kiritgan so'zimizni talaffuz qilib beradi. Fonix Speech, Inc kampaniyasi CD-875 Invetec Besta nomli electron vositasiga qo'shimcha ravishda Fonix VoiceIn nomli ovoz tanish programmasini ishlab chiqmoqda.

**Invetec Besta CD-875.** Bu vosita ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talaba va turli kasb egalariga taqdim etilgan. CD-875 electron lug'at imkoniyatlari hamda PDA ning barcha vazifalarini o'zida jamlagan. Bunda inglizcha so'zlar, so'z birikmalari, gaplar talaffuzini o'zlashtirishda o'quvchi, talaba va til o'rganuvchilarga qulaylik yaratadi. CD -875 ga qo'shimcha tarzda VoiceIn jihozining ishlab chiqilishi foydalanuvchilarga to'g'ridan-to'g'ri, og'zaki so'z va frazalar talaffuzni mashq qilish va bu electron moslamada keltirilgan til sohibining talaffuzi bilan taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Foydalanuvchi bir so'zni yoki so'z

birikmasini tanlaydi, namunani eshitadi, so'ng o'zi talaffuz qiladi, Fonix VoiceIn esa uning talaffuzni analiz qilib, talaffuz aniqligini tasdiqlovchi asosiy mazmuni keltiradi.

### **III. 2 Bob. O'rta maktablarda inglizcha talaffuzni o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash**

Ushbu bobning nomidan ham ma'lumki, bu bobda texnik vositalarni qo'llab o'tilgan darslardan namunalar beriladi. Tajribalar 228 – maktabda amalyot o'talganda o'tkazilgan. Asosan 5 – 6 – sinflarga dars o'tdim. O'quvchilar soni 15 ta edi. Aynan texnika vositalarini qo'llagan holda dars tashkil qildim va bu o'quvchilarning darslarga qiziqishini orttirganini, ularning faollashganini va

so'zlarni, gaplarning talaffuz va intonatsiyasini fonagrammalarga taqlid qilib o'zlashtirgani yaxshi samara berayotganini sezdim.

Hozirgi davrda o'rta maktablarda talaffuzni o'rgatish, asosan, nutq faoliyati turlarini shakllantirishga, o'stirishga, rivojlantirish uchun vosita sifatida foydalanish asosiy shartlardan biridir. Talaffuz va ritm – ohang malakalarini hosil qilish nutqning fonetik tomonini o'rgatishning asosiy maqsadidir. Ushbu bobda ingliz tili talaffuzini o'rgatish va o'zlashtirishda texnik vositalardan foydalanilgan dars namunalari ko'rsatilgan.

## **2.1. O'rta maktablarda inglizcha talaffuzni o'rgatishda mavjud texnik vositalar, ularning turlari**

Inglizcha talaffuzni o'rgatishda texnik vositalar yaxshi samara beradi. Ular yordamida tovush, so'zlar talaffuzi, intonatsiya oson va tez o'rganiladi. Texnik vositalar murakkab o'qitish tizimining tarkibiy qismlaridan biri bo'lganligi sababli ularning ahamiyati kata.

G.V.Rogova o'qitish vositalari va o'qitish materiallarini qo'llanishi to'g'risida to'xtalib, uni quyidagicha ta'riflagan:

O'qitish vositalarini qo'llash yoki ulardan foydalanish deganda biz har xil turdagi shunday moslamalarni nazarda tutamizki, ulardan biz ingliz tili materialini o'quvchilarga taqdim qilishda, ongida mustahkamlashda, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda, tekshirishda foydalanamiz. U mexanik vositalarga magnitafonni (tape recorder), radio, record player, diafilm ko'rsatuvchi proektorlarni (a film strip projector), jadval, karta, slaydlarni ko'rsatuvchi proektorlarni (overhead projector), televizor, o'qitish mashinalarini (teaching machines), til laboratoriyalarini kirgizadi. Uning fikricha, magnitafon, radiodan inglizcha so'zlarning talaffuzini, matnни o'qilishini eshittirish, o'quvchilar nutqini yozishda foydalanish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan texnik vositalar qatoriga inglizcha nutqni o'rgatishda DVD, kompyuterlar va ular yordamida foydalanish mumkin bo'lgan programmalar, mobil telefonlarda mavjud bo'lgan diktafonlarni kiritishimiz mumkin. Bu vositalardan foydalangan holda biz maktablarda o'quvchilarga

inglizcha talaffuzni va boshqa til va nutq materiallarini o'rgatishimiz mumkin.

O'rta maktablarda ingliz tilini o'rgatish 2 ta bosqichda olib boriladi. Har bosqichda talaffuz ustida ishlashning o'ziga xos xususiyati bor.<sup>1</sup>

I bosqichda 5 - 6 - sinflarda talaffuz qilish malakasini shakllantirishga, talaffuzni o'rgatishga asos solinadi.

5-6-sinflarda tovush birikmalarini talaffuz qilish, urg'u, ohang o'rgatildi. Bu bosqichda talaffuz qilish ko'nikmasi faollashadi.

II bosqichda 7-8-9-sinflarda talaffuz ko'nikmalari faollashtiriladi, buning uchun turli mashqlar bajariladi. Ayniqsa, talaffuz bo'yicha nutq mashqlari bunga mos keladi.

### Fonetik mashg'ulot

Fonetik mashqlar o'quvchilarning talaffuz qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun olib boriladi, ya'ni o'quvchilar bu mashqlar yordamida ingliz tili tovushlarini to'g'ri talaffuz etadilar. Har bir darsda o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirayotgan tovushlarni mashq qilish uchun bir necha daqiqa ajratish lozim. Bunda oldin o'rganilgan tovush, tovush birikmalari, so'zlar, so'z birikmalari, namunalar, ism va joy nomlari olinishi mumkin. O'qituvchi tovush birikmasi ishtirok etgan so'zlarni ustun-ustun qilib yozib birgalikda so'ng yakka talaffuz qildirishi mumkin. Bunga olingan fonetik material keying materialni, darsning bosqichini to'ldiradi, darsni o'tkazishga yordam beradi. Masalan: [ ] tovushi bilan talaffuz qilinishini takrorlamoqchimiz. O'qituvchi tovush, so'zlarni doskaga quyidagicha yozadi yoki texnik vositadan foydalangan holda diktir talaffuzi eshittiriladi: [ ]

First word birthday thirteen

Girl work Thursday thirty

Oldin bir o'quvchi talaffuz qiladi, so'ngra so'zlarni o'quvchilar birgalikda talaffuz qiladilar, xato qilsalar o'qituvchi to'g'iraydi. Talaffuz leksika va grammatika bilan birgalikda o'rgatiladi. Past Simple ni o'quvchilar o'rganayotganda o'qituvchi

---

<sup>1</sup> O'.Hoshimov. I.Yoqubov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" T-2003 82b



to'g'ri fe'llarga -d, -ed qo'shimchasi qo'shilganda qanday talaffuz qilinishi kerakligini o'rgatadi. Bu so'zlar uch guruhga bo'linadi:

[t]	[d]
Wash – washed	open - opened
Thank – thanked	close - closed
Watch – watched	live - lived
Stop – stopped	smile - smiled
Work – worked	

[ id ]

Want – wanted	rest - rested
Skate – skated	decide – decided

Talaffuzni o'rgatish muhim va murakkab ishlardan hisoblanadi. Texnik vositalardan foydalanish va o'quvchilarda o'rganilayotgan tilga bo'lgan havasni orttiradi, yangi-yangi mashq turlarini o'tkazishga imkon beradi. O'qituvchinig ham, o'quvchining ham mehnatini yengillashtiradi.

Inglizcha talaffuzni o'rgatishda ko'pincha fonogrammalardan keng foydalaniladi. Ular magnitafon, DVD, shuningdek lingafon kabinetidagi texnik apparatlar orqali eshittiriladi va ular asosida turli mashqlar bajariladi. Texnik vositalar yordamida talaffuzni o'rgatishda quyidagi mashqlarni bajarish mumkin:

1. Eshiting, bilib oling. Tovushlar so'zlarda beriladi, o'rganayotgan tovushni o'quvchi eshitib bilib olishi, topishi zarur. Masalan, bad, bed, bird so'zlarida [e] tovushi aqysi so'zdaligini topish kerak.
2. Eshiting – e'tibor bering. Eshitish jarayonida o'quvchilar ma'lum tovush, tovush birikmasi, intonatsiya va shu kabilarga e'tibor berishi kerak.
3. Eshiting – tushuning. Bunda ko'proq o'quvchilarga jumlar, she'rlar, qo'shiqlar hamda matnlardan parchalar berilib, tinglatilib, ulardagi tovushlarni eshitishlari va mazmunni tushunishlari talab etiladi.
4. Eshiting – farqlang. Tovush va tovush birikmalarini farqlash uchunular alohida hamda so'z va jumalalarda beriladi. Masalan: man – men, bad – bed, so'zlarida [ ] va [e] tovushlari farqlanishi kerak.

5. Eshiting – yodda tuting. O'quvchilar tovush, tovush birikmasi so'zlarni tinglab ularning talaffuzini yodda tutishga harakat qiladilar.
6. Eshiting – takrorlang. Bunda faqat tovush va tovush birikmasi beriladi. O'quvchilar bularni tinglab, taqlid yo'li bilan takrorlaydilar.

Inglizcha talaffuzni o'rgatishda texnik vositalardan foydalanish uchun mashqlarni bajarishda albatta o'qituvchi o'zi oldindan tovush, tovush birikmalarini, so'zlarni tinglaydi, to'g'ri talaffuz qilib, fanagrammasini tayyorlab, tinglab ko'rib, so'ng o'quvchilarga tinglatadi, mashqlarni bajartiradi. Bunda turli xil mashqlarni ishlab chiqish mumkin. Masalan:

Qo'shiq matnini berib, unda nuqtalar o'rnini kerakli harflar, so'zlar bilan to'ldirilishi kerakligi o'quvchilarga aytiladi. O'quvchilar qo'shiqni tinglab bir vaqtning o'zida nuqtalar o'rnini to'ldirishlari kerak bo'ladi. Agar o'quvchilarning javoblari turlicha bo'lsa, yoki xatoga yo'l qo'ygan bo'lsalar, qo'shiq qayta qo'yib eshittiriladi. So'ng o'qituvchi to'g'ri javobni aytadi va o'quvchilar xatolari bo'lsa to'g'irlab oladilar.

Bu mashqni bajarish davomida o'quvchilar nafaqat so'z talaffuziga, balki uni to'g'ri yozishga ham e'tibor qaratishlari lozim. Shu orqali eshitib to'g'ri talaffuz qilish, eshitgan so'zlarni to'g'ri yoza olish, to'g'ri o'qish, og'zaki nutqda ham talaffuzga e'tibor berib gapirishga katta yordam beradi. Biz hozirgi paytda keng tarqalgan, ko'p o'quv yurtlarida, akademik litseylar va ba'zi maktablarda mavjud bo'lgan lingafon kabinetlarining imkoniyati katta, ammo hamma yerda ham bu imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti. Undan to'liq foydalanish ta'lim sifatini oshiradi.

Ingliz tilida erkin va ravon o'qish, to'g'ri talaffuz qilish malakasiga ega bo'lgan o'quvchi bu til bilan kelajakda mustaqil shug'ullanaish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu malakani shakllantirish hamda oson yo'l bilan to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishda lingafon kabineti yoki o'rta maktablarda mavjud texnik vositalardan foydalanamiz. Buning uchun avvalo talaffuz materiallarini taqsimlab olingan tartib bo'yicha tanlab olamiz. Ular lingafon apparati yordamida o'rgatiladi. Material mazmuni o'quvchilarning talaffuz faoliyatida sodir bo'ladigan nuqsonlarni bartaraf

qilishga qaratilgan bo'ladi.

Tovushning aniq talaffuz etilishi so'z va jumalarning to'g'ri aytilishini, natijada nutqning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Quyidagi mashqlar ana shu maqsadga xizmat qilib, ular lingafon vositasi yordamida o'zlashtiriladi. O'quvchi o'zlashtirilayotgan materialni tinglash bilan birga o'qituvchi doskada yozgan grafik obrazni ham kuzatadi. Ingliz tili materialini bir vaqtning o'zida ko'rish va eshitish yordamida o'rgatilishi tufayli ta'lim jarayoni intensivlashadi:

Cho'ziq unli tovushni o'zlashtirishga xizmat qiluvchi bu mashqni bajarishda o'quvchilarni [i:] tovushining cho'ziqlik xususiyati, qisqa unlidan keskin farq qilishi kabi fonetik hodisalarni o'zlashtirishlari nazarda tutiladi.

e, ee, ea, ie – [i:]

be	seed	sead	field	seeing
he	feed	meal		evening
she	need	heat		eager
Pete	knees	peace		

Bu mashqni bajarish paytida o'quvchilar lingafondan diktora talaffuzidagi so'zlarni tinglaydilar, pauzada esa har bir so'zni takrorlaydilar.

Ilmiy ishning 1.1 qismida ta'kidlab o'tilganidek, unlilar cho'ziqligiga rioya qilmaslik o'quvchilarning tipik xatolaridan biridir. Buning oldini olish yoki bartaraf etish uchun ko'p mashq bajarish va o'quvchilarning xatolari o'qituvchi tomonidan to'g'rilanib borishi kerak. Shuningdek texnik vositalarni qo'llagan holda dars o'tish yaxshi samara beradi. Yuqorida keltirilgan cho'ziq [i:] tovushini o'rgatishda diktafondan foydalanib, o'qituvchi har bir so'zni talaffuz qilib yozadi. Bu fonogrammadan dars davomida foydalanish yoki o'quvchilarga o'zlari mustaqil ravishda, o'qituvchi tushuntirishlari asosida tovushlarni talaffuz qilib, diktafonga yozishlari uchun namuna qilib ko'rsatishlari mumkin.

## **2.2. Ingliz tilini o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash**

O'quvchilarning o'rgatilayotgan materiallarni qabul qilishi va esda saqlashi qo'llanilayotgan metod, usullarga, vositalarga, sharoitga qarab har xil darajada

bo'lishi mumkin. Olimlarning aytishicha, odatda o'qilgan matnning faqat 10 % eslab qolinar ekan, eshitib tinglaganimizda esa 20 %, tomosha qilib ko'rganimizda 30 % eslab qolar ekanmiz. Agarda ham ko'rib, ham tinglasak, o'tilgan darsning 50% ini, bordiyu biz o'zimiz gapirib bersak unda 70 % ini va shu ishni bajarsak 90 % ini esda olib qolar ekanmiz.

Keltirilganlarni tahlil qilsak, birinchi uch holatga o'quvchilarning o'rganish darajasi ancha passiv, qolgan uch holatda esa tushunib qabul qilish darajasi ancha aktiv. Bularning hammasini hisobga olgan holda, hozirgi paytda zamonaviy information texnologiyalardan, multimedia usullaridan, kompyuterlardan, turli texnik vositalardan foydalanib darslar o'tilsa, tashkil qilinsa o'qitish nisbatan har tamonlama mukammallashgan dars bo'lishiga erishish mumkin.

Multimediali usulni, tizimni ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarga beradigan yordamni baholash qiyin emas. Multimedia bir vaqtning o'zida ekranda va kompyuter diktafonidan quyidagilarni taqdim etadi: <sup>1</sup>

- a) Grafika – obektning o'zini ta'siri;
- b) Matn – o'rganilayotgan tilda va uning ona tilidagi tarjimasi;
- c) Tovush – matnning ingliz tilidagi talaffuzi;
- d) Qayta joylashtirish – “sichqoncha” yordamida obekt bilan har xil operatsiyalar bajarish imkoniyati;
- e) Animatsiya – obektning harakatida – jarayonida kuzatish imkoniyati.

Yuqorida barcha qayd qilinganlarni o'quvchining o'zi multimediali dars o'tkazishning ishtirokchisi – ijrochisi bo'lgan holda o'tkazishi mumkin.

Keying vaqtlarda dars jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish ingliz tilini o'qitishda multimediali tizimlar va masofadan o'qitish vositalarini qo'llash masalalari bilan birgalikda g'oyatda muhim bo'lib qolmoqda.

Shuningdek biz audio, video, elektron materiallar ya'ni audio kasseta yoki

---

<sup>1</sup> Is'hoq Yoqubov. “Amaliy ingliz tili metodikasi” T-2011 68b

disklar, video kasseta yoki disklar, television va radio eshittirish vositalarini ingliz tilini o'rgatishda qo'llashimiz mumkin.

Audio va video kassetalar (disklar). Bu vositalardan ingliz tili til materiallari va nutq faoliyati turlarida foydalanish mumkin. Masalan, leksika va talaffuzni o'rgatishda:

Kasseta yoki diskga yozilgan fonogramma o'quvchilarga eshittiriladi. Bunda their, there, they're ga o'xshash omonim so'zlar to'plami bo'ladi. O'quvchilar nutqni tinglagach, har bir so'zni daftarlariga yozishlari kerak. So'ng quyidagi gaplar ham tinglatiladi:

I live in the north of England. /liv/

Your favourite rock group is singing live on TV tonight. /laiv/

I read in bed each night. /ri:d/

I read "War and Peace" last year. /red/

The lead singer in the group is great. /li:d/

Lead pipes are dangerous. /led/

The wind blew the tree down. /wind/

Wind the rope around this tree. /waind/

I wound my watch last night. /waund/

He suffered a terrible wound in the war. /wu:nd/

Some students at Oxford spend more time learning to row well than studying. /r u/

They shared a flat for ages until they had a row over money and split up. /rau/

They stood in a row and had their photo taken. /r u/

This book is called English vocabulary in use. /ju:s/

You must know how to use words as well as their reading. /ju:z/

They lived in a large old house. /haus/

The buildings house a library and two concert halls as well as a theatre. /hauz/

The sow has five piglets. /sau/

The farmers sow the seeds in the spring. /s u/

Bathing the baby at night may help it to fall asleep. /ba: I /

(on a sign at a beach) No bathing. /bei I / <sup>1</sup>

Bu jumlar avval boshdan oxirigacha tinglatiladi. Ikkinchi marta esa o'qituvchi har bir gaplar juftligidan so'ng fonogrammada pauza qiladi, o'quvchilarga gaplarda ishtirok etayotgan omonim leksikani tushuntiradi va ularning talaffuziga diqqat bilan tinglashlari kerakligini aytadi.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganish va o'rgatish uchun turli ta'limiy audio va video disklar mavjud. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek bu disklar orqali ingliz tili grammatikasi, leksikasi, talaffuzi hamda ingliz tilida gapirish, o'qish, yozuv va tinglab tushunishni o'rganish mumkin. Bunday disklar sirasiga ingliz tili mahalliy so'zlashuvchilar tomonidan ishlab chiqilgan darslar to'plami kiritilgan disklar, ingliz tilidagi turli kino va multfilm diskleri (subtitri bilan), Angliya va Amerika mamlakatlari, ularning geografiyasi, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalari, tarixi, adabiyoti va xalqi, urf-odatlar, bayramlari haqida ingliz tilida ma'lumot beruvchi videodastur disklerini kiritish mumkin. Bu disklardan o'quvchi, talaba va til o'rganuvchilar mustaqil ravishda foydalanishlari mumkin. Tell Me More, Accelerated Reader Tests, Top Tips for Academic English, My ET, ESL podcast, Lingvo shular jumlasidandir.

Elmo Projector. Bu proektorning asosiy maqsadi slaydli hujjatlar va obektlarni namoyish etishdir. Bu texnik vosita yordamida grammatika, to'g'ri o'qish qoidalari aks ettirilgan jadval va diagrammalar slaydini butun sinfga namoyish qilish va ular asosida dars o'tish mumkin.

A language laboratory (til laboratoriyasi). Bu til o'rganish uchun jihozlangan maxsus sinfxonadir.

“Til laboratoriyasi ikkita asosiy turi ya'ni kutubxona va axborot uzatish tizimi mavjud. Kutubxona tizimi mustaqil shug'ullana oladigan o'quvchilar uchun qulay; har bir o'quvchi o'zi xoxlagan til materialini tanlab, o'zi xoxlaganday foydalanadi. Axborot uzatish tizimi esa sinfdan dars o'tishga mo'ljallangan bo'lib, bir xil

---

<sup>1</sup> Michael McCarthy. Felicitu O'Dell. “English vocabulary in use” 42b.

material bir vaqtning o'zida butun guruhga namoyish etiladi va o'quvchilar birgalikda o'qituvchi ko'rsatmasi bilan mashg'ukot olib boradi.”<sup>1</sup>

Til laboratoriyasi tinglab tushunish va gapirish uchun ishlatiladi. Bu yerda o'quvchilar turli mashqlar bajaradi, og'zaki nutq bo'yicha testlar topshiradi. Tape recorder ( magnitafon)lar bu til laboratoriyasidan foydalanishda talab etiladigan barcha funksiyalarni ta'minlaydi. Fonogrammalardan tashqari videogrammalarni ham individual va guruh ishlarida qo'llash mumkin.

“Til laboratoriyasi butun sinfning dars davomida o'z ustida ishlashi va o'rganish bilan band bo'lishini ta'minlaydi va o'qituvchiga ingliz tilini yanada samarali o'rgatish imkonini beradi”.<sup>2</sup>

Television. Channels(shows). Biz televizor orqali turli kanallarni, jumladan ingliz tilida olib boriladigan BBC kanallaridan til o'rganishda foydalanishimiz mumkin. Ularning til o'rganishda ahamiyati katta. Bir vaqtning o'zida biz yangiliklardan xabardor bo'lamiz, turli television dasturlarni, kinolarni ko'ramiz va ingliz tilidagi darajamizni, tinglab tushunish qobiliyatimiz hamda malakamizni rivojlantiramiz. Eng muhimi bu television dasturlar bizga o'rgangan til materiallarimiz – leksika, grammatikani qanday qo'llashni va nutq vaziyatlarini kuzatish imkonini beradi. Tuner qurilmasi yordamida televizorda ko'rayotgan ko'rsatuvlarni qayd qilib yozishimiz va uni qaytadan ko'rishimiz mumkin.

Til o'rgatishda qaysi texnik vositadan foydalanilmasin, ularning barchasi haqida o'qituvchi bilishi, ularni ishlata olishi, o'quvchilarga o'rgatishi talab etiladi. Shuningdek bu vositalardan foydalanganda dars o'tish uchun qanday tayyorgarlik ko'rishni va material tayyorlashni bilishi zarur.

O'rta maktablarda ingliz tilini o'rgatishda texnik vositalar mavjud. Har bir maktabda proyektor, fonogramma, videogrammalardan foydalanish uchun

---

<sup>1</sup> G.V.Rogova “Methods of teaching English”1975.59b.

<sup>2</sup> Gluskin.V.M. “Inastranni yaziki v shkole”. 1971. № 6. 89b.

uskunalar bo'lishi kerak, masalan, televizor va video qurilma, DVD yoki kompyuter.

#### **IV. 3 Bob. O'rta maktablarda ingliz tili materiallari va nutq faoliyati turlarini o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash**

##### **3.1. O'rta maktablarda ingliz tili darslarida 6- sinflarga til materiallari (talaffuz, leksika, grammatika )ni o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash**

Hozirda o'rta maktabning 6- sinflarida ingliz tili Fly High darsligi asosida o'rgatiladi. 6- sinflarda inglizcha talaffuzni o'rgatishda texnik vositalardan



foydalanish mumkin. Buni belgilash maqsadida biz 6- sinf darsligidagi Unitlarni, Lessonlarni, Exerciselarni tahlil qildik. Tahlil til materiallari talaffuz, leksika, grammatika bo'yicha bo'ldi. Ular bo'yicha mashqlarni ko'rib chiqdik.

### **Til materiallari bo'yicha mashqlar**

#### Unit 1 Work and family

Unit 1	Pronunciation	Grammar	Vocabulary
Lesson 1	-	-	1c
Lesson 2	1c	2	1a
Lesson 3	2a	3	-
Lesson 4	1	-	2a
Lesson 5	3	-	-
Lesson 6	1a	1,2	2

Talaffuzni o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash

“O'rgatilayotgan fonetik va talaffuz materialini kelajakda qo'llaniladigan nutq faoliyati turiga qarab uni tanishtirish, o'rgatish ishlab chiqiladi.”<sup>1</sup>

O'quvchilar, talabalarda tinglab tushunish orqali talaffuzni egallash ko'nikmasini hosil qilish masalasi tursa, unda ko'proq turli sharoitlarda ularni tinglatish, qaytarish, texnik vositadan tinglab tovushlarni farqlash, taniy olish mashqlari, ular ishtirok etgan kontekstni tinglatib, ishtirok etgan gaplarni, so'zlarni toptirish kabi mashqlar qo'llaniladi.

Kelajakda o'quvchi talaffuz materialini gapirishda qo'llashi nazarda tutilsa, unda fonetik materialni ko'proq qaytarish, taqlid qildirish mashqlari, so'zda farqlab qo'llash, talaffuz qilish mashqlari keng qo'llaniladi.

O'quvchi o'z oldiga o'qishda qo'llashni maqsad qilsa, unda fonetik materialni harf-tovush ketma-ketligida o'rgatish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi oldin

<sup>1</sup> O'.Hoshimov. I.Yoqubov “Ingliz tili o'qitish metodikaasi” T-2003. 81b

harfni ko'rsatib, so'ng talaffuzni o'rgatadi. Bunda ko'proq so'zlarni o'qib farqlash, matni o'qib taniy olish, farqlash mashqlari qo'l keladi. Ularni o'qituvchi fonogramma orqali eshittiradi. O'qituvchilar ayniqsa, mashqlarni tuzishda, tanlashda bu xususiyatlarni hisobga olishi shart. hozirda talaffuz bo'yicha tayyorlov yoki til mashqlari va nutq mashqlariturulari qabul qilingan. Tayyorlov mashqlarida asosan shu fonetikmaterialni bir yoqlama qiyinchiligi ustida gap ketsa, nutq mashqlariga esa bu fonetik materialni nutqda qo'llashda o'rgatiladigan, o'zlashtiradigan mashqlar kiradi. Quyidagi mashqda esa o'quvchilarda tinglab tushunish orqali talaffuzni egallash ko'nikma va malakalarini hosil qilishni fonogramma, videogramma kabi texnik vosita yordamida amalga oshirish mumkin:

### **Lesson 2    Exercise 1c    Pronunciation**

CD yoki DVD diskga yozilgan so'zlar talaffuzini o'quvchilarga eshittiramiz.

Ikkinchi marta o'quvchilar bu so'zlarni diktordan so'ng takrorlaydilar:

Diktor:     photographer [ f t gr f ]

O'quvchilar: [ f t gr f ]

Diktor:     pilot [pail t]

O'quvchilar: [ pail t]

Diktor:     doctor [d kt ]

O'quvchilar: [d kt ]

Diktor:     sick people [sik pi:pl]

O'quvchilar: [sik pi:pl]

Diktor:     hospital [h dpitl]

O'quvchilar: [h spitl]

Diktor:     airport [ (r)p :t]

O'quvchilar: [ (r)p :t]

Leksikani o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash

“Leksikani o'rgatish tilni o'rgatishning asosini tashkil qiladi. Leksika o'rgatiladigan so'z va so'zlar yig'indisidir. Leksikani mukammal egallamay turib, nutq faoliyati turlarini o'rgatib o'rgatib, o'rganib bo'lmaydi. U nutq faoliyatlari

uchun material sifatida xizmat qiladi.”<sup>1</sup>

Ingliz tili dasturi bo'yicha har bir sinf uchun leksik minimum soni ko'rsatilgan. Unda 5-sinf uchun 300 ta leksik birlik, 6-sinf uchun 300 ta leksik birlik, 7-sinf uchun 250 ta leksik birlik, 8-sinf uchun 150 ta leksik birlik, 9-sinf uchun 100 ta leksik birlik, hammasi bo'lib 1100 ta leksik birlik o'rta maktablarda o'rgatiladi.

Leksika – so'z til o'rganish boshlangandan so'ngiga qadar o'rganilib boriladigan til materialidir. Leksika doimiy darajada o'sib boradi. Leksikani o'rgatish eng qiziq tashkil qilinadigan darslardandir. Texnik vositalarning barchasi leksikani o'rgatish uchun xizmat qila oladi. Ko'pincha leksika o'quvchilarga yotlatilgan. Bu ham bir usul. Ammo o'quvchi bu so'zlarni ko'r-ko'rona yodlasachi? Uni amalda qo'llashga qiynalsachi? Demak, leksikani o'rgatish hamda o'rganish faqatgina yodlash emas, yodda qolishi uchun harakat qilish va bu so'zlarni nutqda qo'llay olishdir. Biror bir o'yin yoki qiziqarli mashg'ulot orqali yangi so'zlarni o'rgatish mumkin.

Buning uchun avvalo yangi so'zlar bir mavzuga oid bo'lishi, o'quvchilar qiynalib ketmasliklari uchun ko'p so'z birdan berilmasligi kerak. Texnik vositalardan foydalanib ( video, televizor va boshqalar), film, audio matn orqali so'zlarning qo'llanilish holatlarini izohlab berish mumkin. O'quvchilar so'zlarning ma'nosini tahmin qilib topa oladigan darajadagi matn va film namoyish etilishi kerak. O'quvchilarning yangi leksikadan og'zaki nutqda erkin foydalana olyaptimi yoki yo'q, buni bilish uchun mashg'ulot matnidan, filmdan, audio eshittirishdan savollar

berish mumkin. Masalan, mavzu : “Professions” bo'lsa va yangi so'zlar photographer, interpreter, architect, policeman, fireman, reporter sales assistant” kabi so'zlar bo'lsa o'rtaga quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Would you like to be an interpreter?
2. What is your father's job? Kabi savollarga barcha o'quvchilar javob beradi va yangi so'zlarni o'zlashtiradi.

Turli texnik vositalar yangi so'zlarni o'zlashtirish uchun, amalda qo'llay olish uchun yaxshi samara beradi.

O'quvchilarga “A wedding in Britain “ - Britaniyada to'y marosimi (6-sinf)

---

<sup>1</sup> O'. Hoshimov. I. Yoqubov “Ingliz tili o'qitish metodikasi” T – 2003. 106b

mavzusidagi yangi soʻzlarni oʻrgatish kerak. Buning uchun oʻquvchilarga Britaniyada toʻy marosimi haqida film qoʻyib beriladi. Yangi soʻzlar “pageboy, bride, bridesmaid, bridesgroom, top hat” boʻlishi mumkin. Oʻquvchilar ushbu soʻzlarni aktyorlar nutqidan yoki tasvir ostidagi subtitle – yozuvdan koʻrib taxminan tushuncha hosil qiladi. Soʻzlarni qay darajada oʻzlashtirganini bilish uchun oʻquvchilar bilan Role play mashgʻulotini oʻtkazish mumkin.

Leksika doimiy va toʻxtovsiz ravishda kiritilib boriluvchi til birligi hisoblanadi. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, darsda tarjima qilinmasdan, tarjima lugʻatlardan foydalanmasdan oʻquvchi soʻzning maʼnosini aniq bilishi zarur. Ingliz tilida bor baʼzi soʻzlarning oʻzbek tilida yoʻqligi bu masalani qiyinlashtiradi. Shuningdek, baʼzi soʻzlar oʻzbek yoki ingliz tilida keng yoki tor maʼnoga ega boʻlishi mumkin. Albatta bu borada tarjimadan foydalaniladi. Quyida 6–sinflarga leksikani oʻrgatishda texnik vosita, fonogrammadan foydalangan holda tarjima usulida mashgʻulot oʻtkazish mumkin:

### **Lesson 1 Exercise 1c Vocabulary**

Bu mashqda matn beriladi va bu matnda uchragan soʻzlarni oʻzbek tiliga tarjima qilish kerak. Oʻquvchilar matnni oʻqib chiqqach quyidagi savollarga javob beradi, bunda biz savollar yozilgan fonogrammadan foydalanishimiz mumkin. Oʻquvchilar qilgan xatolarni mashgʻulotdan soʻng toʻgʻirlaymiz.

Fonogramma: What is “director” in your language ?

Oʻquvchi: director

Fonogramma: What is “librarian” in your language?

Oʻquvchi: kutubxonachi

Fonogramma: What is “sick” in your language?

Oʻquvchi: kasal

Mashgʻulot shu tarzda davom etadi.

Grammatikani oʻrgatishda texnik vositalarni qoʻllash

Tilni tushunish va unda oʻz fikrini toʻgʻri bayon etish uchun oʻrganilayotgan til

grammatika mexanizmini o'zlashtirishi lozim. Gapdagi barcha so'zlarni bilsak ham, bu gapdagi so'zlar o'rtasidagi bog'liqliklarni sezmasa, uning mazmunini tushunib yetmasligi mumkin. Aksincha, biror gapda bitta, ikkita va undan ham ko'proq notanish so'z ishlatilgan bo'lsa ham, til strukturasi yaxshi egallasak, shu so'zlarning ma'nosini fahmlab bilib olish yoki hech bo'lmaganda bu so'zlarni lug'atdan topib gapning mazmunini tushunib olish qiyin emas.

“ 5-6-sinflarda og'zaki nutqning Grammatik tomoni o'rgatiladi. Bunga sabab shuki, bu sinflarda nutq faoliyati turlari og'zaki nutq -o'qish – yozuv ketma-ketligida bo'ladi. “<sup>1</sup>

## **Lesson 2. Exercise 2. Grammar**

“a” va “an” artikllarining ishlatilishini tushuntirib berganimdan so'ng, o'quvchilar kasb nomlari oldidan bu artikllardan birini qo'yib yozdilar. Masalan:

A gardener

An engineer

Undan so'ng o'quvchilarga fonagrammadan turli kasb nomlari oldidan artikl qo'yib talaffuz qilinishi eshittirdim va o'quvchilar artikllarning ishlatilishi yani qaysi kasb nomidan oldin “a” yoki “an” qo'yilishiga e'tibor berishlari talab etildi.

Yuqorida keltirilgan jadval bo'yicha til materiallari talaffuz, grammatika va leksika mashqlarining tahlili:

## **Lesson 5 Exercise 3 Pronunciation**

Doskaga so'zlarni yozdim va ularni o'qib berdim, o'quvchilarga ko'rsatma berdim:

Listen and repeat

O'qituvchi: bride [braid]

O'quvchilar: [braid]

O'qituvchi: wedding dress [wedi dres]

O'quvchilar [wedi dres]

O'qituvchi: pageboy [peid b i]

O'quvchilar: [peid b i]

---

<sup>1</sup> O'.Hoshimov I. Yoqubov “Ingliz tili o'qitish metodikasi” T-2003 103b

## **Lesson 6 Exercise 1a Pronunciation**

O'qituvchi o'quvchilarga:

Find words with the sound [e] ( [e] tovushi mavjud bo'lgan so'zlarga misol keltiring).

O'quvchilar navbatma-navbat

Telephone, letter, every, pet, best, sentence va hokazo.

6-sinf Fly High darsligining birinchi Unitida talaffuz bo'yicha beshta, leksika bo'yicha to'rta, grammatika bo'yicha to'rta mashq keltirilgan. Qolgan mashqlar nutq faoliyati

turlari - tinglab tushinish, gapirish, o'qish va yozishga tegishli.

## **Lesson 2. Exercise 1a Vocabulary**

Bu mashqda kasb-hnarga doir o'n uchta so'z beriladi. Aralash holda o'n beshdan ortiq suratlar berdim. O'quvchilar so'zlarni tegishli suratlarga qo'yishlari talab etildi. Hamma mashqni bu mashqni tugatgach, kasblar haqidagi kichik video filmni qo'yib berdim. Bu multimediyada o'n uch xil kasb egalari namoyish etildi va subtitle- yozuv surat tagidan chiqadi. Bir vaqtning o'zida har bir kasb egalarining nomlari ketma-ket tarzda talaffuz qilinadi. O'quvchilar bu videofilmni ko'rish davomida mashqlaridagi xatolarni tuzatib bordi. Quyida o'n uchta kasb nomlari:

- |                        |              |
|------------------------|--------------|
| 1. Photographer        | 8. Chef      |
| 2. Interpreter         | 9. Gardener  |
| 3. Computer programmer | 10. Pilot    |
| 4. Architect           | 11. TV star  |
| 5. Policeman           | 12. Reporter |
| 6. Sales assistant     | 13. Nurse    |
| 7. Fireman             |              |

## **Lesson 4 Exercise 2a Vocabulary**

“The Anvar’s family” nomli matn beriladi. O'quvchilar bu matnni o'qib bo'lgach, bu matnga doir savollar beriladi. Savollarga javob berilgach matnda uchragan so'zlarni o'qituvchi o'quvchilardan so'raydi. What do these words mean?

Relative wedding dress

Take a photo twin make a video

### **3.2. O'rta maktablarda ingliz tili darslarida 6-sinflarga nutq faoliyati turi tinglab tushunishni o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash**

Tinglab tushunishni o'rgatishda texnik vositalarni qo'llash

Tinglab tushunish ham nutq faoliyatining turidir. U retseptiv nutq faoliyatiga kiradi. Tinglab tushunish – so'zlovchining nutqini radiodan magnitafondan, kompakt diskdan va muloqot paytida tinglab tushunib ma'lumot olishdir. U ba'zi adabiyotlarda audirovaniya deb ham yuritiladi. U murakkab nutq faoliyatidir, chunki tinglovchi tezda shaklni qabul qila olishi, hotirada saqlab qolishi zarur, aks holda uni qaytadan

ko'rib, o'qib, tushuna olishi uchun manbaa, sharoit, vosita yo'q. tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar va talabalarda tinglab tushunish gapirishga qaraganda kam taraqqiy etgan. O'quvchi o'qiganda, ko'rganda tinglab tushunishga qaraganda olti marta ko'p malumat olarkan. Sababi uni ustida kam ishlaganidadir, murakkabligidadir. Tinglab tushunish gapirishning ajralmas qismidir. Tinglab tushunish va gapirish og'zaki nutqni tashkil qiladi. <sup>1</sup>

Tinglab tushinishni o'rganish muloqotga kirishishning muhim bosqichidir. Zero muloqot ikki tomonlama bo'ladi. Chet tilida muloqotga kirishgan shaxs nafaqat aniq gapira olishi balki suhbatdoshi nima deyotganini ham tushunib javob qaytarish kerak. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'quvchilarda talaffuz bo'yicha muammolar bo'lishi tabiiy. Shundan kelib chiqib hozirgi kundagi tinglab tushunishni o'rganish va o'rgatishdagi eng katta muammo bu mahalliy so'zlovchilarning nutqini tushuishdir. Ularning talaffuzigao'quvchilarning talaffuzini imkoni boricha birxillashtirish o'qituvchining asosiy vazifasidir. Ingliz tilidagi ba'zi tovushlarning o'zbek tilida mavjud emasligi, tilning fonetik va fonologik xususiyatlari o'quvchi va talabalarning oldida turgan asosiy qiyinchiliklardandir. Hammaga malumki ko'pchilik talabalarning til o'rganishdagi zaif joyi bu tinglab tushunishdagi qiyinchiliklaridir, buning sababi oddiy bo'lib talabalarga ko'pincha to'g'ri tinglash o'rgatilishining o'rniga shunchki ularning ingliz tilidagi nutqini tushunish o'rgatiladi.

Tinglab tushunish mashg'loti to'g'ri va samarali bo'lishi uchun o'quvchilarda, talabalarda eng avvalo ingliz tili talaffuzi, fonetikasi haqida chuqur bilimga ega bo'lishlari lozim. Yani harflarning to'g'ri talaffuzi, so'zlarning kundalik nutqda bir-biriga bog'lanib ketishi, unlilarning qisqa va cho'ziq talaffuz qilinishi, assimilatsiya qoidasi, urg'uning to'g'ri ishlatilishi haqidagi bilimlari o'quvchi va talabani tinglab tushunish mashg'ulotini yaxshi o'zlashtirishlariga asos bo'ladi va yordam beradi. Tinglab tushunishda boshqa til materialini o'rgatishdagi kabi leksika 80% emas matndagi nutq imkoni 90-100% ma'lum bo'lishi lozim. Asosiy maqsad yangi

---

<sup>1</sup> O'.Hoshimov. I. Yoqubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi" T-2003 131b



leksikani kiritish emas, o'zlashtirilgan leksikalarni nutqda ishlatilishini tinglab tushuna olish.

Tinglab tushunish darslaridagi eng katta muommolardan biri o'qituvchilarning til tizimini o'rgatishga berilib ketib uni nutqda qo'llashni orqaga surishidir. Til sistemasiga oid bilimlar deganda lug'at boyligi va so'zlarni gapda to'g'ri tartibda ishlatish, ularni to'g'ri talffuz qilishga oid bilimlar nazarda tutiladi. Til sistemasini nutqda qo'llash deganda esa bilimlarni ma'noni anglash va anglatish uchun qo'llash nazarda tutiladi. Yani ingliz tilida gapirish va tinglab tushunish.<sup>1</sup>

Tinglab tushunishni o'rgatuvchi va mustahkamlovchi pedtexnologiyalar va texnik uskunalarga magnitafon, kompyuter, videolarni kiritishimiz mumkin. Albatta magnitafon yoki video uskunada nutq eshittirish, tomosha qildirishning o'zi bilan tinglab tushunish mashg'uloti oxiriga yetmaydi. Tinglab tushunish mashg'uloti uch qismga bo'lib o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Matnni tinglashdan oldingi jarayon (pre-listening) qoidalari

- Avvalo o'quvchilarga tuli texnik apparatlar orqali fonogrammadan eshittiriladigan matnning barcha so'zlarini tushunish shart emasligi ta'kidlab o'tiladi.
- O'quvchilar eshitadigan matnni tushunishlariga ishonch hosil qiling. Buning uchun ular qaysi malumotga e'tibor qaratishini ta'kidlab o'tish lozim.

O'quvchilarning mavzu borasidagi boshlang'ich bilimlarini tekshirish uchun ikki yoki uchta savol berib ko'rish lozim.

- O'quvchining qaysi so'zning tarjimasini bilmasligini oldindan taxmin qilib ularni eslatib o'tish lozim.
- Oldindan eshittiriladigan nutq mavzusida boshqotirma mashg'ulotini o'tkazish ularni mavzuga fikrini jamlashga yordam beradi.
- Juda uzun nutq tanlanmaslik lozim. Zarur bo'lsa ba'zida to'xtab o'quvchilardan eshitganlarini tekshirish maqsadida savollar berish kerak.

Matnni tinglatish jarayoni (while listening)dagi qoidalar

- Avvalo mavzu haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishlari uchun fonogrammadagi

---

<sup>1</sup> Richards "Tinglab tushunishni yaxshiroq o'qitish" 1990, 50b

nutq bir marta eshittiriladi, so'ng alohida detallarni tushunish uchun qaytadan eshittiriladi.

- O'quvchilarga eshitgan malumotlarini, joy nomlarini, ismlarni yozib qo'yishlarini vazifa qilib berish.
- Turli savollar berish va ularga matndan javob toppish kabi topshiriq berish o'quvchilarni eshittirilayotgan matnga yanada diqqat qilishlariga majbur qiladi.
- O'quvchilarga matnni qayta qo'yib berish juda muhim. Ayniqsa ular tushunishga qiynaladigan qismlarini takror qo'yib berish juda muhim.

Matnni tinglatgandan keyingi (post-listening) qoidalar

- O'quvchilarga o'zlarining yozib olgan ma'lumotlarini guruhda yoki juftlikda boshqalarnikini solishtirish topshirig'ini berish mumkin.
- O'quvchilarga savollar berib ular eshitgan matnni detallar bilan eslashga undash lozim.
- Savollar berib o'quvchilarga matnni qayta eshittirib savolga javomni eshitganda "stop" deyish mashg'ulotini o'tkazish mumkin. O'quvchilarni guruhlarga bo'lib ularga o'zaro matn yuzasidan savollar tuzish topshirig'ini berish mumkin.
- Mashg'ulot so'ngida o'quvchilarga uchratgan yangi so'zlarini daftarga qayd qilib qo'yishlarini topshirish lozim.

Samarali dars o'tish multimedia resurslari bilan amalga oshiriladi. Tinglab tushunish qobilyati mavzu haqidagi malumotga ega bo'lish emas aynan o'sha mashg'ulot paytida faol qatnashish orqali o'zlashtiriladi. Guruhda ham yakka holda ishlaganda ham tinglab tushunishni yaxshilash uchun o'zaro guruhda mashg'ulotlar hamda texnik vositadan foydalangan holda quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

#### Audio eshittirishlar

Tinglab tushunishni nafaqat o'zaro balki audio eshittirishlar orqali ham o'rgatish juda muhim. Chunki talabalar mahalliy so'zlovchilarning nutqini tushuna olishlari juda muhimdir. Audio matnlar, radio dasturlar, xabarlar shular jumlasidandir. Bunda avvalo o'quvchilarga mavzu haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi. So'ng matn

eshittirilib o'quvchilarning boshlang'ich bilimlari sinovdan o'tkaziladi. So'ng ikkinchi bora tinglatilib o'quvchilarga mavzuni detallari bilan ochish uchun savollar va topshiriqlar beriladi.

### Video dasturlar

Tinglab tushunishni o'rgatishning yana bir yo'li bu video dasturlardir. Bularga qisqa dasturlar, yangiliklar, hujjatli filmlar, intervyular, drama va komediya filmlari kiradi. Xuddi audio eshittirishlar kabi video dasturning ham ma'lum bir qismi olinadi. Bu qism o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga mos darajada oson va qisqa bo'lishi lozim. Birinchi navbatda o'quvchilarga parchani tomosha qildirish va so'ng birlikda muhokama qilish kerak. O'quvchilarga parchaning asosiy mavzusini ochib beruvchi fikrni toppish topshirig'ini berib parchani yana bir bor tomosha qildirish kerak. Bu safar o'quvchilarga agar lozim bo'lsa qaydlar qilib borishlarini aytish mumkin. Video dasturni tomosha qilib bo'lgach ularga dasturning asosiy mazmunini ochib beruvchi qisqacha insho yozish yoki mavzu haqida muhokama yoki bahs uyushtirish mumkin.

Hozirda 5-6- sinflar uchun mualliflar tomonidan chiqarilgan kasetalar mavjud. O'rta maktaktablarda bundan foydalanish imkonoyati kam. O'qituvchilar ulardan foydalanishlari kerak. 6-sinf darsligini tahlil qilib quyidagi tinglab tushunishga doir mashqlarni tanlab oldim. Bu mashqlarni bajarishda texnik vositalardan biri magnitofonga kasetani qo'yib eshittirdim.

### Listening comprehension

Unit 2	Houses and homes	Exercise	Page
Lesson 1	An English house	2a	12
Lesson 2	Welcome to my home	2b	13
Lesson 3	Tidy up your room	2	14
Lesson 4	Uzbek houses	5	15
Lesson 5	Homes: yesterday,	4	16

	today...		
Lesson 6	Project	-	17

### **Lesson 1 Exercise 2a**

Bu mashqda quyidagi so'zlarni doskaga yozib, o'quvchilarga fonogrammadan 2a mashq nutqini eshittirdim:

Living room dining room bedroom kitchen

Hall toilet bathroom road

Ikkinchi marta eshittirishdan oldin esa look, listen and repeat (qarang, tinglang va takrorlang) deya topshiriq berdim. O'quvchilar eshitish mobaynida har bir so'zni diktordan so'ng talaffuz qilishdi.

### **Lesson 2 Exercise 2b**

Magnit doskaga a) televizor, b) magnitafon, c) kiyim javoni, d) parda, e) kreslo, f) divan, g) gilam suratlarini yopishtiramiz. So'ng mashqni qanday bajarish kerakligini o'quvchilarga tushuntirib beramiz ya'ni navbatma-navbat o'quvchilar doskaga chiqadi, fonogramma eshittiriladi. O'quvchi har bir so'zni tinglagach, tartib bilan o'sha so'zga tegishli suratni qayta qo'yib chiqish kerak.

Fonogrammada so'zlar quyidagi tartibda berilgan:

- |                      |             |
|----------------------|-------------|
| 1. Armchair          | 5. Carpet   |
| 2. Sofa              | 6. Curtain  |
| 3. TV set            | 7. Wardrobe |
| 4. Cassette recorder |             |

Mashg'ulot tugagach o'quvchilarga yana nutqni eshittirib bus afar suratlarni o'zimiz to'g'ri tartibda joylashtiramiz, ular esa o'z xatolarini topadilar ya'ni:

1 – e, 2 – f, 3 – a, 4 – b, 5 – g, 6 – d, 7 – c.

### **Lesson 3 Exercise 2**

Doskaga uy jihozlarining nomlarini yozib chiqamiz. O'quvchilarga kasetadagi 3-dars 2-mashqa tegishli bo'lgan fonagrammani eshittirishdan oldin o'quvchilarga nutqni diqqat bilan tinglashini va doskada nomlari yozilgan jihozlar uyning qaysi tomonida

joylashganini topishlari kerakligi aytiladi. So'ng fonogramma ularga eshittiriladi.

#### **Lesson 5      Exercise 4**

Bu mashqda uylarning kechagi, bugungi va kelajakdagi ko'rinishi va undagi qulayliklar haqida audio eshittirish berilgan. Bunga ko'ra o'quvchilarga fonogrammadagi savollar tinglatiladi va Yes javobi uchun Y, No javobi uchun N yozib savollarga javob yozadilar. So'ng sinfda barcha savol va javoblar muhokama qilinib, o'qituvchi to'g'ri javobni o'qib eshittiradi.

Bu mashqlardan tashqari har bir Unit va Lessonlar uchun turli mashqlar ishlab chiqish va ularda texnik vositalarni qo'llash mumkin, bu esa o'qituvchidan mahorat va yaratuvchanlikni talab etadi.

### **V. Xulosa**

Ingliz tili hozirda butun dunyoda qo'llanilayotgan tillardan biridir. Ingliz tilini o'qitish metodikasi chuqur va ko'p bosqichli tarixga ega. Bu vaqt mobaynida tilni o'qitishning ko'plab metodlari yaratildi va vositalari amalda bo'ldi. Shular qatoriga til o'qitish bo'yicha qo'llaniladigan texnik vositalarni ham kiritishimiz mumkin. Ushbu malakaviy ish hozirgi kunda dolzarb bo'lgan ingliz tilini, xususan bu til talaffuzini o'rgatishda qo'llaniladigan texnik vositalarga bag'ishlanadi. Malakaviy ish yakunida quyidagi ilmiy – amaliy xulosalarga keldim:

- Ingliz tili talaffuzini o'rganishda faqat tovushlarni, so'zlarni talaffuz qilishda emas, balki urg'u qo'yish, jumlar ohangida ham qiyinchiliklarga duch kelinadi.

- Ingliz tili talaffuzini o'qitishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinsada, ularni aniqlagan holda til o'rganuvchilar, jumladan o'quvchi va talabalarning talaffuz bo'yicha tipik xatolar qilishini bartaraf etish mumkin.
- Ko'p hollarda ingliz tili talaffuzini o'rganishda o'zbek o'quvchi va talabalari interferentsiya yani o'zbek tilidagi fonetik va fonologik hodisalarni ingliz tiliga ko'chirish kabi holatlarga yo'l qo'yadilar.
- Talaffuzni o'rgatish talaffuz materialining xususiyatiga bog'liq bo'lib, bunga ko'ra taqlid va tushuntirish metodlari ishlab chiqilgan.
- Talaffuz o'rgatish jarayonida yondashuvlar artikulyatsiya va til o'rgatishning tabiiy qonuniyatiga ( avval nutqni tinglash qobilyati, so'ngra talaffuz va ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish) asoslanadi
- Ingliz tili talaffuzini o'rgatishda texnik vositalardan foydalanish sinfda, darsda ma'lum darajada til muhitini yaratib, o'quvchilarda tilga nisbatan qiziqishini orttiradi.
- Texnik vositalardan nafaqat talaffuzni o'rgatishda, shuningdek til materiallari va nutq faoliyati turlarini o'rgatishda ham samarali foydalanish mumkin.
- Til o'rgatishda foydalaniladigan texnik vositalarning asosiy xususiyati shundaki, bu vositalar hech qanday qolip yoki konsepsiyaga ega emas. Ya'ni ular tinimsiz rivojlanib, yangilanib o'z ichiga yangidan-yangi turlarni kirgizib boraveradi.
- Dars mobaynida texnik vositalardan foydalanganda o'qituvchi ma'lumot manbai emas, shunchaki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi – instructor hisoblanadi.
- Texnik vositalar hozirgi rivojlanish tez suratda kechayotgan paytda o'quvchilarning e'tiborini tilga tortadigan eng afzal vositadir, chunki ular tilni o'rganishni osonlashtiradi.

Shuningdek, ushbu malakaviy ishda talaffuzni o'rgatish bilan aloqador ko'plab muammolar va masalalarga aniqlik kiritilgan.

Ushbu malakaviy ishda so'ngi paytlarda ko'p o'qituvchilar tomonidan qo'llanilgan texnik vositalar sanab o'tilgan va ularga ta'rif berilgan. Fonogramma, videogramma, videofotogramma, ulardan foydalanishda kerak bo'ladigan magnitafon, record player, proektorlar, televizor va video, audio uskunalar shular jumlasidandir.

Ushbu malakaviy ishda doim o'qituvchi va talabalar tomonidan zerikarli deb hisoblangan fonetik mashg'ulotlarni texnik vositalarni qo'llagan holda qiziqarli o'tkazish nazariy va amaliy isbotlab berilgan. Unga ko'ra talaffuz o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar tushunarli va qiziqarli bo'lishi uchun guruh-guruh bo'lgan holda va fonogramma, videogrammadan nutqni eshittirishdan oldingi yoki keyingi mashg'ulotlarni o'tkazish kerak. Leksika, gapirish, o'qish, tinglab tushunish mashg'ulotlari bilan birga o'tkazish uni oson tushunish va va qo'llash imkonini beradi.

Texnik vositalardan foydalanishda ingliz tilida tinglab tushunishni o'rgatish mashg'uloti o'z ichiga uch bosqichni:

- Matnni eshittirishdan oldingi bosqich;
- Matnni eshittirish davomidagi bosqich;
- Matnni eshittirgandan keying bosqichni o'z ichiga oladi.

Darslarda texnik vositalarni qo'llashning asosiy maqsadi ingliz tilida aniq, ravon va bexato gapirishga erishishni osonlashtirishdir.

Yakuniy fikrlar sifatida shuni aytishim mumkinki, hozirgi kunda texnik vositalar ingliz tilida muloqot qilishni o'rgatishning samarali, ko'pchilik tomonidan qo'llaniladigan vositadir va texnologik vositalar nafaqat til o'qitish metodikasida, balki biznes, iqtisod, siyosat kabi jamiyatning asosiy tarmoqlarida keng foydalanilmoqda.

Ushbu malakaviy ishning mavzusini yoritish uchun 288-maktabda o'tkazilgan texnik vositalar qo'llanilgan dars mashg'ulotlari amaliy xulosa bo'lib xizmat qildi.

## **VI. Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" 2008. 5 b.
2. A.A.Miroljubov. I.V.Raxmonov. V.S.Tsetlin. "O'rta maktablarda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi" Toshkent-1974. 289b
3. Aronson. "Shaxsiyat va jamiyat psixologoyasi" qo'llanmasi. 1990. 460 b.
4. Abulxo'ja L.A. "Chet tili sifatida ingliz tili va adabiyotini o'rganishdagi metodlar" 2006. 230 b.
5. Barua T.S. "Ingliz tili o'qituvchilari uchun kitob" Deli, Sterling nashriyoti. 1991. 470 b.
6. Braun G. Yule.G "Foydalanilayotgan tilni o'qitish" Kembrij – 1983. 320 b.
7. Chapelle.CA "Computer applications in second language acquisition. UK:



Cambridge 2001.

8. Garmer J. "Ingliz tilini o'rgatish amaliyoti" 1984. Longman. 558 b.
9. G.R.Ragova "Methods of teaching English" Leningrad-1975. 57-60 b.
10. Gluskin.V.M "Inostranni yaziki v shkole" N-6 89b.
11. Harmer J. "How to teach English" Harlow 2007.
12. Hada.Y. Ogata J. Yano.Y. "Supporting online video-based correction for language learning through markup-video" Paper presented at the Ed Media Conference. June 24-29, 2002. Denver, Colorado.USA
13. I.Yoqubov. "Amaliy ingliz tili o'qitish metodikasi" Toshkent-2011. 68 b.
14. "Inostranniy yazik" jurnali. Moskva -2009. 2-son. 56 b.
15. Lee.C. George Jor.G. Lai.E "Web-based teaching English" Hong Kong 2005 198b
16. Molbash P. Fisher.D "Teaching and learning English with technology" 2003. 40,63 b.
17. Olga Kozar. "English teaching forum" jurnali 2010, 23 b.
18. Rojkova F.M. "Kinofilmi na urokax angliskova yazika" Moskva-1967 312b.
19. Saidumar Saidaliyev. "Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar" Namangan-2004. 95b.
20. Selse-Mursiya M. "Ingliz tilini ikkinchi til yoki chet tili sifatida o'rgatish" AQSh, Heinli. 2001. 460 b.
21. O'.Hoshimov. I.Yoqubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi" Toshkent -2003. 74,76,106 b.
22. [www.learnEnglish.org.uk](http://www.learnEnglish.org.uk)
23. [www.ericdigests.org/2003](http://www.ericdigests.org/2003)
24. [www.teachingpronunciation.net](http://www.teachingpronunciation.net)
25. [www.teachinglanguageusingcomputertechnology](http://www.teachinglanguageusingcomputertechnology).
26. [www.unr.edu/homepage/hayriyek](http://www.unr.edu/homepage/hayriyek)
27. [www.britishcouncil.uk](http://www.britishcouncil.uk)
28. [www.methodologyofTFL.com](http://www.methodologyofTFL.com)
29. [www.researchesonlanguageteaching.com](http://www.researchesonlanguageteaching.com)

30. [www.google.com](http://www.google.com).
31. [www.languageteachingmethods.com](http://www.languageteachingmethods.com)
32. [www.learningEnglishthroughtechnology.com](http://www.learningEnglishthroughtechnology.com)
33. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)